



O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

Postda Ha nocty

Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!



2025-yil 27-fevral
payshanba

№ 9 (4703)

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqa boshlagan / Web-site: www.postda.uz / E-mail: info@postda.uz

HARAKAT NATIJAGA YETAKLAYDI



Gulnoza Qodirova badiiy adabiyotga muhabbatni onasidan yuqtirgan. Um-rini odamlar dardiga shifo bo'lishga bag'ishlagan Halima opaning uyidagi kutubxonasida yuzdan oshiq kitoblari bo'lib, u farzandini 4-sinfidayoq bolalar adabiyotining eng sara namunalarini mutolaa qilishga unday boshladi. Natijada qizaloq 16 yoshga to'lganida uyidagi barcha asarlarni o'qib tugatgan va yangilarini sotib ola boshlagandi.

Yuragi adabiyotga mehr bilan to'lib-toshgan Gulnoza maktabni bitirgach, Jizzax davlat pedagogika universitetida o'qidi, Alisher Navoiy nomidagi davlat stipendiyasiga munosib ko'rildi. 2005-yilda esa Toshkent davlat pedagogika universitetining magistri diplomini oldi.

(Davomi 2-betda.)

YO'L XAVFSIZ — MANZIL YAQIN

So'nggi yillarda yirik megapolisga aylangan poytaxtimizda aholiga xavfsiz va qulay transport xizmati ko'rsatish borasida ko'plab ishlar amalga oshirildi. Buning natijasida, ayniqsa, Toshkent metrosi o'zining qulayligi, tezkorligi va xavfsizligi bilan yo'lovchilarning sevimli jamoat transportiga aylandi.

(Davomi 12-betda.)



HAFTA XABARLARI

FUQAROLARNING
XABARISIZ KREDIT
RASMIYLASHTIRILMAYDI

Senatning to'rtinchi yalpi majlisida «Kredit axboroti almashinuvi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga kredit sohasidagi munosabatlarni yanada takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi qonun ko'rib chiqildi.



Qonunda fuqaroning kredit bitimi tuzishi taqiqlangan shaxslar reyestrda mavjudligi yoki mavjud emasligi, taqiqlash (taqiqni bekor qilish) to'g'risidagi arizaning holati haqida axborot olish hamda berishda kredit byurolariga nisbatan huquq va majburiyatlar, ularga nisbatan qo'llaniladigan choralar va sanksiyalar ham aks ettirilmoqda.

Senatorlar ma'qullagan qonun fuqarolar ishtirokisiz yoki xabarisiz kredit bitimini rasmiylashtirish bilan bog'liq firibgarlik holatlarining oldini olish maqsadida kredit byurosiga ariza kiritish orqali fuqaro bilan kredit bitimini tuzishni taqiqlash imkonini beradi.

JARIMA BALLARIDAN
EHTIYOT BO'LING!

«Yo'l harakati xavfsizligi tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslariga hamda O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi



kodeksiga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish haqida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilindi.

Unga ko'ra, hisoblangan jarima ballari bir yil davomida 12 ballidan oshgan hollarda haydovchilar 6 oydan kam bo'lmagan muddatda transport vositasini boshqarish huquqidan mahrum etilishi belgilandi. Jarima ballari belgilangan huquqbuzarliklardan biri birinchi marta sodir etilgan kundan e'tiboran bir yil davomida hisoblab boriladi.

Shuni alohida qayd etish joizki, haydovchilarga tayinlanadigan 12 ballik jarima ballari faqatgina YPX inspektorlari tuzgan bayonnomalar asosida shakllanadi va ballarni hisoblash tizimi IIV JXD YHXXda inson omilisiz, avtomatlashtirilgan tarzda hisob-kitob qilinadi.

MAKTAB O'QUVCHILARI
UCHUN YANGILIK

Yangi o'quv yilidan maktablarda CHQBT (Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik) fani haftasiga ikki soatdan o'qitiladi. Bunda tayanch o'quv rejada 10–11-sinflarga haftasiga bir soatdan qo'shimcha yuklama kiritiladi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi



Prezidentning 2024-yil 4-noyabrdagi «O'q otish sport turlarini yanada rivojlantirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori bilan maktablarga harbiy poligonlardan foydalanishga ruxsat berildi. Qarorga ko'ra, 2025/2026-o'quv yilidan boshlab umumiy o'rta ta'lim muassasalarida chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'quv dasturlari doirasida «O'qotar va pnevmatik sport qurollarining taktik-texnik tavsiflari» amaliy mashg'ulotlari kiritilishi belgilandi. Ya'ni, endilikda maktab o'quvchilari quroldan foydalanish bo'yicha amaliy mashg'ulot o'taydilar.



Abdulla ORIPOV,
O'zbekiston Qahramoni.

*Avval yuragingga
mo'ralaydi u,
So'ngra kurtaklarga
o'rgatadi so'z.
Zaminning ko'zidan
qochadi uyqu,
Demak, bahor keldi,
Kelmoqda Navro'z!*

Qadriyatlarining boqiy
bo'lsin, Navro'z!

«2025-yilgi Navro'z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida»gi Prezident qarori qabul qilindi.

■ Qarorga ko'ra, 2025-yilgi Navro'z umumxalq bayrami mamlatimizda «Qadriyatlarining boqiy bo'lsin, Navro'z!» degan bosh g'oya asosida umumxalq sayillari shaklida yuqori saviyada keng nishonlanadi.

■ 2025-yilgi Navro'z umumxalq bayramining g'oyaviy-badiiy konsepsiyasi ma'qullandi hamda bayramga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bo'yicha tashkiliy qo'mita tasdiqlandi.

■ Bu yilgi Navro'z bayrami muqaddas Ramazon oyida nishonlanishini inobatga olib, keksa avlod vakillarini, xususan, Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va mehnat fronti faxriylarini har tomonlama e'zozlash, «Mehribonlik», «Saxovat»

va «Muruvvat» uylarida yashayotgan shaxslar, ijtimoiy himoya daftarlari kiritilgan va ko'makka muhtoj insonlarning holidan xabar olish maqsadida, ular uchun bayram dasturxonini yoziladi hamda turli xayriya tadbirlari o'tkaziladi.

■ «Yashil makon» umummilliy loyihasida belgilangan tadbirlarni amalga oshirish, bayram arafasida barcha hududlarda, ko'cha, mahalla, tuman va shaharlarda obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish aksiyalarini, umumxalq hasharlarini o'tkazishga alohida e'tibor qaratiladi.

■ Toshkent shahridagi «Yangi O'zbekiston» majmuasida alohida dastur asosida xalq sayillari tashkil etiladi.

IIV AKADEMIK LITSEYLARIDA

HARAKAT NATIJAGA YETAKLAYDI

(Davomi. Boshlanishi 1-betda.)

2006–2008-yillarda aspirant sifatida ilmiy izlanishlar olib borgan lavhamiz qahramoni keyinchalik grant asosida Sankt-Peterburg (Rossiya) davlat universitetida tashkil qilingan psixologiya kursida o'qidi. Keyin JDPU hamda ushbu universitet qoshidagi akademik litseyda ona tili va adabiyotdan dars bera boshladi.

Mazkur o'quv muassasasi negizida IIV akademik litseyi tashkil qilinganda Gulnoza Qodirova jamoada qolib, bildi-

rilgan ishonchni oqlashga as-toydil harakat qildi. Chunonchi, uning sa'y-harakatlari bilan litsey yoshlari respublika miqyosida o'tkazilgan o'nga yaqin ko'rik-tanlovlarda yuqori natijalarga erishdi. Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlangan yosh shoirlar – Zuhra Yo'Ichiyeva hamda Aziza Shokirova Gulnoza Qodirovani o'zlariga ustoz deb bilishadi.

Ko'p o'tmay tashkilotchilik qobiliyatini inobatga olgan holda u ta'lim muassasasi direktorining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari la-

vozimiga tayinlandi. Gulnoza Qodirova bu mansabdagi to'rt yillik faoliyati davomida ham o'qib, o'rganishdan to'xtamadi. Chunonchi, baxshi Fozil Yo'ldosh o'g'li ijro etgan «Zavarxon» dostonining til xususiyatlari bo'yicha tadqiqotlar olib bordi. Mazkur jarayonda ilmiy rahbari, professor Guljahon Jumanazarova bilan birgalikda 15 mingdan ortiq so'z ishlatilgan asarning lug'atini tayyorlab, ushbu so'zlarni o'zagiga ko'ra o'zbekcha, forscha, arabchaga ajratdi hamda grammatik jihatdan tahlil qildi.

Bundan tashqari, xoriijiy va respublikamizdagi ilmiy jurnallarda, shuningdek, konferensiyalar risolalarida 40 dan ziyod maqolalari chop etildi. Shu yil fevral oyida esa filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktorligi dissertatsiyasini himoyaladi.

Gulnoza Qodirova o'quvchilarining til va adabiyotga oid bilimlarini boyitish orqali ularni erkin fikrlashga o'rgatadi. Og'zaki va yozma nutqlarini rivojlantirish, jumladan, notiqlik san'atini egallashlarida ko'mak beradi. Shu kabi

fazilatlarini tufayli samimiy va kasbini jondan ortiq ko'radigan muallimani shogirdlari va jamoadoshlari behad hurmat qiladilar. Ko'plab marotaba faxriy yorliq, tashakkurnoma hamda mukofotlar bilan taqdirlangan.

Lavhamiz qahramoni erishayotgan barcha yutuqlar zahirida mehribon umr yo'ldoshi, shifokor Bakir Qodirovning qo'llab-quvvatlovi mujassam, desak adashmaymiz.

Alijon ABDUSATTOROV,
o'z muxbirimiz.
Jizzax viloyati.



XOTIRJAMLIK ORTIDA BEDORLIK

Yunusobod tumani IIOFMBda «xodimbay» ishlash usulida o'rganishlar olib borilib, ijtimoiy himoyaga muhtoj xodimlar hamda ularning oila a'zolari ro'yxati shakllantirilmoqda. Turli masalalarda murojaat qilganlarning muammolari o'z vaqtida bartaraf etilmoqda.



Tashkiliy bo'lim kanselariya boshlig'i, safdor Mag'firat Muhammadqulova.

– Xizmatga noloyiq, o'z xulqi va yurish-turishi, qo'pol muomalasi bilan boshqalarga ham salbiy ta'sir o'tkazayotgan hamda qonunbuzarlikka moyil ayrim kadrlardan tizimni tozalash ishlari izchil olib borilmoqda, – deydi tuman IIOFMB bosh-

Namuna bo'layotgan xodimlardan yana biri tuman IIOFMB Tashkiliy bo'limi kanselariya boshlig'i, safdor Mag'firat Muhammadqulovadir. Hozirda boshqarmaga kelib tushayotgan hujjatlarni o'rnatilgan tartibda ro'yxatga olish va o'z vaqtida tegishli

rahbarlarga tanishtirib, ijrochilarga berilishini ta'minlashda mas'ul.

Uning singlisi safdor Ziyoda Jabborova ham hozirda IIV huzuridagi JIED tizimida hisobchi bo'lib xizmat qilmoqda.

Ekspert-kriminalistika bo'limi xodimlari to-

monidan ham 2025-yilning o'tgan davrida 260 marotabadan ortiq voqea joyi ko'zdan kechirilib, 300 dan oshiq ash-yoviy dalillar olingan va 8 ta jinoyat «issiq izida» ochilgan. Xususan, joriy yilning 4-yan-

var kuni Markaz 6-dahasida joylashgan korxonada o'g'rilik jinoyati sodir etiladi. Xodimlar voqea joyidan qo'l barmoq izlari olishadi va shu asosda 2006-yilda tug'ilgan L.B. qo'lga olinadi.



Podpolkovnik Oybek Atabayev xizmat jarayonida.



Kapitan Murodulla Ergashev ish jarayonida.



Podpolkovnik Nabi Polatov hamda mayor Alisher Minvarov.

lig'ining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari, podpolkovnik Oybek Atabayev. – Ichki ishlar organlari xodimlari sha'niga dog' tushirayotganlardan o'z vaqtida voz kechish kelgusida yutuqlarga erishishga zamin bo'ladi.

O'z navbatida, fidoyi va kasbiga sadoqatli xodimlarni rag'batlantirishga ham katta e'tibor qaratilgan. Ana shunday xodimlarimizdan mayorlar – Hasan Xo'janov, Ulug'bek Atadjanov, katta leytenantlar – Dilshoda Xo'janova, Ikrombek Nurullayev, Sanjar Agzamov, leytenantlar – Komila Sagatova, Boburbek Ibragimov, Komil Toxtarov, katta serjant Doniyor Ortiqov, safdorlar – Saidmalik Abdullayev va Xurshidbek Murodovlarning nomlarini alohida ta'kidlab o'tish joiz.



Katta serjant Ozot Mambetov va safdor Doniyor G'ulomov.

Tuman EKB xodimlari tomonidan tergov va jinoyat qidiruv xodimlari hamkorligida hodisa joylarini ko'zdan kechirish mobaynida videokuzatuv kameralarida aks etgan, jinoyat sodir etishda gumon qilingan kimsalarning shaxsini aniqlash maqsadida «Polifeys» dasturi yordamida tekshirish ishlari ham olib borilmoqda. Ushbu sa'y-harakatlarda jonbozlik ko'rsatayotgan bo'lim katta eksperti, podpolkovnik Nabi Polatov hamda ekspert, mayor Alisher Minvarovning alohida o'rni bor. Ular o'z ishining ustasi bo'lib, voqea joyidagi har bir detalni ko'zdan qochirishmaydi.

Sarvar SOBIROV,
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.

KASB FIDOYISI

QIROQ YILDIRKI, XALQ XIZMATIDA

Inson qaysi kasbda ishlashidan qat'iy nazar, o'z kasbiga mehr berib, vazifasiga mas'uliyat bilan yondashsa, undan qadr topishi turgan gap. Jamiyatimizning turli sohalarida mehnat qilayotganlar orasida bundaylar ko'plab topiladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV Tibbiyot bo'limi shifokori Joldas Saburovni ulardan biri sifatida keltirish mumkin.

Chunki, u 40 yildan ortiq davr mobaynida tibbiyot sohasida faoliyat olib borib, aholi salomatligini asrashda bor kuch va bilimni ayamayapti. Bemorlar dardiga malham bo'lishi orqali ularning olqishiga sazovor bo'lib kelmoqda. Asli nukuslik bo'lgan lavhamiz qahramoni o'rta maktabni tugatganidan so'ng, Andijon davlat tibbiyot institutining davolash fakultetiga o'qishga kiradi.

– Xalqimizda «O'g'il otaga tortadi» degan gap bor. Otam Yusup Saburov 1942-yili To'rtko'l tumanidagi feldsherlik bo'yicha tayyorlov kursda o'qiganidan so'ng, urushga olib ketiladi. G'alabani Berlin shahrida kutib oladi. Urushdan keyin yana ikki yil harbiy xizmatda bo'lib, 1947-yilda o'zi tug'ilib o'sgan joyga qaytib keladi. Bir necha yil davomida kolxozda ishlab, so'ngra, ToshMIga o'qishga topshiradi. 1956-yilda oliygohni bitirib, Qoraqalpog'istonda tibbiyot sohasida faoliyat olib boradi. Ko'p yillik mehnatlari inobatga olinib, unga «Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sog'liqni saqlash xodimi» unvoni beriladi. Onamiz Zulayha Palo'anova hamshira bo'lib ishlagan. Shu boisdan oilamizdagi 4 nafar farzandning uchta tibbiyot sohasini tanlagan. Shular qatorida men ham», – deydi J.Saburov.

U 1985-yilda tibbiyot institutini tamomlab kelganidan so'ng, ilk faoliyatini Nukus shah-



ridagi 3-sonli poliklinikada uchastka shifokori bo'lib ishlashdan boshlaydi. Shundan so'ng O.Xalmuratov nomidagi 1-son Respublika shifoxonasi terapevt shifokori, Allergologiya bo'limi katta ordinatori, keyinchalik kardiologiya, endokrinologiya, tez tibbiy yordam bo'limlarida turli lavozimlarda xizmat olib boradi. Shu bilan

birga, ko'p yillik tajribaga ega xodim sifatida tan olinib, Nukus shahridagi Tibbiyot kolleji, Vrachlar malakasini oshirish markazida o'qituvchilik ham qiladi.

2003-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV Tibbiyot bo'limi boshlig'i, podpolkovnik Berdibay Qurbanovning taklifiga ko'ra, vazirlik tarkibida yangidan tashkil etilgan Davolash va sog'lomlashtirish markaziga ishga qabul qilindi. Bu yerda markaz faoliyatini yangidan tashkil etish, ilgari bo'lmagan fizioterapiya, manual terapiya, igna terapiya kabi muolaja turlarini joriy etishda faol ishtirok etadi. Xastalik bilan kelgan bemorlarni davolab, ularning ishonchini qozonishga muvaffaq bo'ladi.

– Sir emaski, ichki ishlar organlari xodimlari xizmat taqozosiga ko'ra kun-u tun ishlashga to'g'ri keladigan paytlari ko'p bo'ladi. Shu boisdan ular sog'lig'iga e'tibor qaratishga unchalik ham vaqt topavermaydi. Albatta, sog'liq mustahkamligi samarali xizmat qilishdagi asosiy omildir. Shuni inobatga olgan holda tibbiyot bo'limi tomonidan joylarda maslahat yig'ilishlari, uchrashuvlar o'tkazib borishni yo'lga qo'yganmiz. Mazkur ishlarni tashkil etishda J.Saburov ham malakali shifokor sifatida faol ishtirok etib kelmoqda», – deydi vazirlik Tibbiyot bo'limi boshlig'i, podpolkovnik Umid Qurbanbayev.

Maqolamiz qahramonning oilasi to'g'risida to'xtaladigan bo'lsak, u turmush o'rtog'i Gulbahor Sodiqova bilan 6 nafar farzandni tarbiyalab voyaga yetkazgan. Kenja qizi Aqsungul ota kasbini davom ettirib, hozirda Tibbiyot institutida tahsil olmoqda.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, kasbidan qadr topgan inson J.Saburov ko'p yillik xizmati va boy tajribasi tufayli ko'pchilik uchun namuna bo'lishga arziydi.

Azamat PIRNIYAZOV,
o'z muxbirimiz.

Qoraqalpog'iston Respublikasi.

HUDUDLARDA

«YASHIL» MAQOMINI
YO'QOTMADI

Paxtakor tumani IIB JXX HPB profilaktika inspektori, katta leytenant To'liqin Omonqulov ayolning ikki og'iz so'zidan masala mohiyatini tushundi. Bundan ikki hafta ilgari bezorilik qilgani uchun B.D. javobgarlikka tortilgandi. Erkak ma'muriy qamoq jazosini o'tab, uyiga qaytgach, uning ustidan shikoyat yozgan qo'shnisidan qasd olishga chog'langan ko'rinadi.

Qo'shnilar janjallashayotgan manzilga yetib borgan profilaktika inspektori kelishmovchilikka barham berish choralarini ko'ra boshladi. Ammo spirtli ichimlik ta'sirida bo'lgan B.D. qonun himoyachisining talablariga bo'ysunmadi. Shu bois katta leytenant uning qo'llariga kishan taqib, avtoulloviga chiqardi. Voqea sud tomonidan bezoriga 7 sutkalik ma'muriy qamoq jazosi tayinlanishi bilan yakun topdi.

Ora-sira shunga o'xshash huquqbuzarliklar sodir etilishini aytmasa, «Dilorom» mahallasi tinch

joy. Jumladan, mahalla o'tgan yili «yashil» maqomini yo'qotmadi, joriy yilda ham hududda jinoyat sodir etilmagan. Tabiiyki, mazkur natija mahalla yettiligi, xususan, katta leytenant To'liqin Omonqulovning sa'y-harakatlari samarasidir.

Chunonchi, u jinoyatlar sodir etilishining oldini olish maqsadida ma'muriy nazorat ostidagi 3 nafar, jazoni ochiqda o'tayotgan 5 nafar, ichki ishlar organlarida hisobda turadigan 20 nafar, muqaddam sudlangan 46 nafar shaxs bilan doimiy ravishda profilaktik tadbirlarni amal-



ga oshiradi. Ayni maqsadda joriy yilning o'tgan davrida 32 ta ma'muriy bayonnoma rasmiylashtirdi, ichkilikka ruju qo'ygan 2 kishining 6 oy muddatga majburiy davolanishga yotqizilishini ta'minladi.

Qolaversa, o'tgan yili mahalla yettiligi 173 kishini ishga joylashtirdi, 7 nafar yoshga 30 yil muddatga 1 gektardan yer ajratildi. 15 nafar ayol subsidiya asosida tikuv mashinasi bilan ta'minlandi. Bu yil mazkur yo'nalishdagi ishlarni yanada kuchaytirish rejalashtirilgan. Qolaversa, mahalla faollari hamda ilg'or

yoshlardan tuzilgan 2 ta guruh profilaktika inspektoriga tungi xizmatni bajarishida ko'mak berayotir.

Aytgancha, fevral oyida ko'chalarning kirish va chiqish joylariga 12 ta zamonaviy kuzatuv kamerasi o'rnatilib, bunday qurilmalar soni 25 taga yetkazildi. Shuningdek, 31 ta yoritkich o'rnatildi. Xullas, «Dilorom» mahallasida jinoyatchilikni jilovlamoq uchun hamma imkoniyatlar ishga solinayotir.

Alijon ABDUSATTOROV,
o'z muxbirimiz.

Jizzax viloyati.



■ Самаркандская область

Штрафные баллы за нарушения ПДД

С начала года сотрудниками УБДД УВД области зафиксировано около 74 тысяч нарушений Правил дорожного движения. В минувшем году этот показатель превысил 449 тысяч. Среди наиболее частых: непристегнутый ремень безопасности, разворот в неположенном месте, превышение скорости, игнорирование дорожных знаков, проезд на красный или желтый сигнал светофора, а также парковка в запрещенных местах. Со стороны пешеходов основными нарушениями стали переход дороги в неположенном месте и использование наушников при переходе.

В целях повышения дисциплины на дорогах и снижения количества ДТП в стране вводится новая система штрафных баллов за нарушение ПДД. Сенаторы одобрили закон, который предусматривает начисление водителям штрафных баллов. При достижении 12 баллов водитель будет лишен прав на срок от 6 месяцев до 3 лет. Окончательный порядок применения системы утвердит правительство.



Как пояснил инспектор по административной практике УБДД области рядовой Жалол Ибадуллаев, баллы будут начисляться в случаях, когда нарушение зафиксировано сотрудником ДПС. Нарушения, выявленные радаром или камерами видеонаблюдения, в балльную систему не войдут.

По данным УБДД Самаркандской области, в минувшем году 34 тысячи водителей были оштрафованы за въезд на стоп-линию, 67 тысяч нарушили требования дорожных знаков, около 5 тысяч водителей задержаны в состоянии алкогольного опьянения.

Замира БАЛТАЕВА,
соб. корр.



В преддверии праздника

Принято постановление Президента Республики Узбекистан «О подготовке и проведении всенародного праздника Навруз в 2025 году» (№ ПП-68 от 21.02.2025).

Согласно постановлению в 2025 году всенародный праздник Навруз в нашей стране будет отмечаться на основе главной идеи «Пусть будут вечными твои ценности, Навруз!»

Утверждена идейно-художественная концепция всенародного праздника Навруз 2025 года, а также состав Организационного комитета по его подготовке и проведению.

Учитывая, что в этом году праздник Навруз отмечается в священный месяц Рамазан, всемерное уважение будет оказано представителям старшего поколения, особенно участникам Второй мировой войны и ветеранам трудового фронта, проявлена забота и внимание к лицам, проживающим в домах «Меҳрибонлик», «Саховат» и «Мурувват», к гражданам, внесенным в тетради социальной защиты, ко всем, кто нуждается в поддержке. Для них будут организованы праздничные дастарханы, а также проведены благотворительные мероприятия.

Особое внимание будет уделено реализации мероприятий, предусмотренных общенациональным проектом «Яшил макон», проведению в преддверии праздника всенародного хашара, акций по благоустройству и озеленению во всех регионах, районах и городах, на каждой улице, в каждой махалле.

В комплексе «Янги Ўзбекистон» в Ташкенте будут организованы народные гуляния по отдельной программе.



В здоровом теле — здоровый дух

ОДНА КОМАНДА – ОДНА ЦЕЛЬ

В ОВД Сырдарьинского района большое внимание уделяется физической подготовке сотрудников. Среди спортивных дисциплин особой популярностью пользуются борцовские и смешанные единоборства, среди командных – футбол и волейбол.

Старший оперуполномоченный оперативно-розыскной службы майор Руслан Хасанов с юности увлекается спортом. Еще в школьные годы он активно занимался волейболом, требующим мгновенной реакции, ловкости, скорости, умения работать в команде. Способности Руслана к данному виду спорта особенно проявились в годы обучения в ТВОКУ. Тогда для многих стало неожиданностью, что команда первокурсников, в которой он состоял, завоевала чемпионство учебного заведения.

В настоящее время служит в подразделе-



нии уголовного розыска Сырдарьинского РОВД. Продолжает заниматься любимым видом спорта. Одновременно выполняет функции тренера.

Вот уже третий год подряд волейбольная дружина РОВД завоевывает призовые места на соревнованиях среди команд органов внутренних дел области. В минувшем году стала абсолютным чемпионом. В соревнованиях текущего года равных в технике игры и мощности удара также не было.

– Волейбол – одна из командных игр, – говорит майор Руслан Хасанов. – Она способствует укреплению сплоченности, взаимовыручки и за пределами волейбольной площадки.

Абдурахмон
МУСТАФОКУЛОВ,
соб. корр.



PATRUL SHAHAR KEZADI

ENG MUHIMI —
JAMOAT XAVFSIZLIGI

Xorazm viloyati IIB JXX JTSB xodimlari tomonidan «Xavfsiz hudud», «Nazorat», «Tigʻ», «Qidiruv» kabi maxsus tezkor-profilaktik tadbirlar davomida koʻplab huquqbuzarliklar aniqlanib, qonun ustuvorligi taʼminlangani.

– Joriy yilning oʻtgan davrida tegishli sohaviy xizmatlar xodimlari bilan hamkorlikda 1700 nafardan ortiq fuqarolar turli huquqbuzarliklar sodir qilgani aniqlanib, ularga nisbatan maʼmuriy bayonnomalar rasmiylashtirildi, – deydi batalyon komandiri, mayor Oʻtkir Masharipov. – Shuningdek, 115 nafar shaxs norkologiya dispanseriga, 4 nafari aniq yashash joyi va mashgʻulotiga ega boʻlmagan shaxslarni reabilitatsiya etish punktlariga joylashtirildi. 2 ta jinoyat «issiq izida» fosh etilib, qidiruvdagi 2 kishi qoʻlga olindi.

Jumladan, joriy yilning 9-yanvar kuni soat taxminan 19:30 larda viloyat IIB Navbatchilik qismiga Gurlan tumanidagi «Dunyo» toʻyxonasi oldidan «Gentra» avtomashinasi oʻgʻirlab ketilgani haqida xabar tushdi. Tezkor xabar asosida viloyat hududida maxsus tadbir eʼlon qilindi.

Oradan koʻp oʻtmay, olib qochilgan mashina Urganch shah-

ri «Baynalmilalchi» koʻchasida paydo boʻldi. Tungi xizmatga jalb qilingan viloyat IIB JXX JTSB Patrul-post xizmati batalyoni tumanlararo otryadi inspektorlari – safdorlar O. Matyoqubov va Sh. Madaminov darhol uni kuza-tuvga olishdi va chorrahada avto-ulovni toʻxtatib, gumonlanuvchini qoʻlga olishdi.

Urganch shahrining markaziy koʻchalari, sayilgothlar, xiyobonlar, bozorlar va boshqa aholi gavjum hududlarda batalyonning 8 ta «Jamoatchilik maskani» faoliyati yoʻlga qoʻyilgan. Mazkur maskanlar atrofiga oʻrnatilgan videokuzatuv kameralari yordamida hududni bevosita nazorat qilish, yon-atrofdagi roʻy berayotgan voqea-hodisalarni tahlil etish, biron bir xavf-xatar yoki huquqbuzarlik sodir etilgan taqdirda hodisa joyiga zudlik bilan tezkor guruhni yoʻnaltirish imkoniyati mavjud. Bu, oʻz navbatida, jamoat xavfsizligini taʼminlash bilan birga, jinoyat hamda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xudoybergan JABBOROV,
oʻz muxbirimiz.

Xorazm viloyati.



YOSHLAR – KELAJAK BUNYODKORI

MAQSAD NA EDI
JAHONA KELDING?

Nurobod tumanida tugʻilib oʻsgan Aziza Aliyevaning oqpoq orzulari keyinchalik aniq maqsadga aylandi. U ayni paytda Ichki ishlar vazirligi Akademiyasining Tezkor qidiruv faoliyati yoʻnalishi ikkinchi kurs kursanti. Lavhamiz qahramoni 2024-yilda Ichki ishlar vaziri stipendiati boʻlgan.

– Qizim Aziza tabiatan ochiqkoʻngil, oʻziga nisbatan nihoyatda talabchan, oldiga qoʻygan maqsadini amalga oshirmagunicha

tivalida «Fuqarolik huquqi» fanidan 1-oʻrinni qoʻlga kiritgan.

– Safdor A. Aliyeva izlanuvchan kursantlarimizdan biridir, – deydi Tezkor qidiruv kafedrasida katta oʻqituvchisi, podpolkovnik Xushnubek Yakubov. – U kelajakda ilmiy faoliyat bilan shugʻullanish niyatida. Bugunga qadar AQSH, Rossiya davlatlarining nufuzli jurnallarida maqolalar chop etishga ham ulgurdi. Taʼlim muassasasida muntazam oʻtkazib kelinayotgan «Zakovat» intellektual



tinchimaydi, – deydi onasi Muqaddam opa. – Maktabda oʻqib yurgan kezlari ichki ishlar xodimalari bilan uchrashuv boʻlgani, ularga juda havas qilganini aytib keldi. Shu havas tufayli IIV Samarqand akademik litseyga oʻqishga kirib, fan olimpiadasida matematikadan viloyatda uchinchi oʻrinni egalladi. Ingliz tilini oʻrganib, milliy sertifikat oldi. Imtiyozli diplom bilan sinov imtihonlaridan muvaffaqiyatli oʻtib, IIV Akademiyasiga oʻqishga kirishi otasi bilan ikkimizning koʻnglimizga cheksiz quvonch olib keldi.

Har bir farzand ota-onaning mehr chirogʻida ungan nihol. Uning yuksaklikka boʻy choʻzib, har kurtak ochishida goʻzal, mazmunli hayot aksi bor. Aziza ham oʻzi tanlagan sohaga oid bilimlarni mukammal oʻzlashtirib, yuksak maqsadlari sari intilishdan toʻxtamayapti. Bu uning qoʻlga kiritayotgan yutuqlarida ham yaqqol koʻrinadi. Xususan, u 2023-yilda Mustaqil Davlatlar Hamdoʻstligi miqyosida tashkil etilgan tanlovda faxrli 1-oʻrinni egallab, «Taʼlim iftixori», «Eng yaxshi xizmatlari uchun» koʻkrak nishoni hamda sertifikat bilan taqdirlangan. Shuningdek, oʻtgan yilning fevral oyida «Kursantlarning ilmiy va innovatsion yutuqlari» ilm-fan fes-

oʻyinlarida ham faol ishtirok etib dunyoqarashining kengligi, zehni oʻtkirli, hozirjavobligini namoyon qilib keladi.

Aziza xalqqa, jamiyatga xizmat qilish, qonun ustuvorligini va adolat barqarorligini taʼminlashga hissa qoʻshishni koʻngliga tukkan. Tanlagan kasbi masʼuliyat, halollik, fidoyilik va professionalizmga asoslanishini yaxshi bilgan qahramonimizning rejaları bisyor.

– Muvaffaqiyat qozonish uchun inson izlanishdan, bilim va malakasini oshirishdan erinmasligi kerak, – deydi Aziza. – Men ham tanlagan soham boʻyicha yanada koʻproq oʻqib, bilim va malakamni boyitmoqchiman. Kelgusidagi maqsadim – magistratura bosqichida oʻqishni ham davom ettirish.

Yoshlik umrning yorugʻ orzular, ezgu niyatlarga yoʻgʻrilgan goʻzal fasli ekanligiga shubhamiz yoʻq. Shoir Nodirabegimning «Maqsad na edi jahona kelding? Kayfiyatini bayon etib ket», misralari kursant Aziza Aliyeva singari shijoatli yoshlarning shaxdam qadamlari, ertangi kunga ishonch bilan intilishlari-yu qoʻlga kiritayotgan yutuqlariga hamohang yozilgandek nazdimizda.

Gulnoza TURGʻUNBOYEVA,
oʻz muxbirimiz.



QAROR VA IJRO

MAHALLALARDAGI OSOYISHTA MUHIT aholi farovonligi va islohotlar samarasini ta'minlaydi

Davlatimiz rahbarining «2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori ijrosi yuzasidan hozirda hududlarda keng qamrovli ishlar amalga oshirilib, ayni faoliyatga IIV Akademiyasi professor-o'qituvchilari ham jalb qilingan.

Akademiya boshlig'i, polkovnik Rustam Xatamov rahbarligidagi ishchi guruhlar tomonidan shu kungacha Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Buxoro, Navoiy viloyatlari va boshqa mintaqalardagi 700 ga yaqin mahallalardagi kriminogen vaziyati joylarga chiqilgan holda o'rganildi. Hududlarda sodir qilingan har bir jinoyatning

yerning o'zida, sektorlar va killari, mahalla yettiligi tizimi a'zolari va boshqa mas'ullar ishtirokida muhokama qilinib, tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda.

Aytish joizki, qarorda nazarda tutilgan vazifalar mahalla yettiligi zimmasiga alohida mas'uliyat yuklaydi. Shu bois hududlarni o'rganish jarayonida Akademiya profes-



asl omillari aniqlandi. Kriminogen vaziyatga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan joylar «jinoyat o'chog'i» sifatida alohida belgilab olindi.

Akademiya boshlig'i o'rinbosari, podpolkovnik Turg'un Kuchkarovning aytishicha, hududlarning ilmiy-amaliy yondashuvlar asosida o'rganilayotgani har bir muammoning asl ildizlarini aniqlash imkonini bermoqda. Mavjud holat shu

sor-o'qituvchilari tomonidan sayyor uchrashuvlar tashkil qilinib, qaror mazmun-mohiyati atroflicha tushuntirilmoqda. Bundan tashqari, soha xodimlarining ish tajribasini oshirish va ularga zarur metodik yordam ko'rsatish maqsadida «Mahallada kriminogen vaziyatni baholashning yangi tizimi», «Kriminogen vaziyati og'ir mahallalar bilan yangicha ishlash mexanizmlari» nomli

targ'ibot materiallari tarqatilmoqda.

Mahallalarda xavfsiz muhit yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish fuqarolarning huquqiy madaniyati, jamiyatdagi o'zgarishlarga bo'lgan munosabati, bir so'z bilan aytganda, mahalla-ko'y hayotiga daxldorligiga ham bog'liq. Aks holda, jinoyatchilikni jilovlashga qaratilgan ishlar ko'zlangan natijani ber-

maydi. Bu borada davlatimiz rahbari qarorida aholining huquqiy ongi, ijtimoiy faolligi va fuqarolik mas'uliyatini oshirish, jinoyat sodir etilishiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan ijtimoiy muammolarni hal etishga jamoatchilik va killari, nuroniylar va mahalla faollarini keng jalb qilish nazarda tutilgan. Shu maqsadda mahalla faollari bilan faol muloqotning yo'lga qo'yilgani, huquqbuzarliklarning sabab va sharoitlari hamda oldini olish choralari qizg'in muhokama qilinayotgani muammolarga manzilli yondashish imkonini bermoqda. Muhimi, kriminogen vaziyatni yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishda ular tomonidan bildirilgan taklif va mulohazalar e'tiborga olinmoqda.

Darvoqe, Akademiya ishchi guruhlariga mahallalarni o'rganish bilan birga, har

bir hudud bo'yicha metodik qo'llanmalar yaratish vazifasi ham yuklatilgan. Bu, bir tomondan, hududiy ichki ishlar organlari va mahalla yettiligi tizimi vakillariga metodik yordam berish sifatini oshirsa, ikkinchi tomondan, ta'lim va ilmiy-tadqiqot faoliyatini amaliyotdagi dolzarb muammolarga yo'naltirish imkoniyatini yanada kengaytiradi.

Bir so'z bilan aytganda, davlatimiz rahbarining qarori bilan bugun hududlarga o'ziga xos yangicha tajribalar kirib bormoqda. Kriminogen vaziyatni barqarorlashtirishga qaratilgan ishlar nafaqat «qizil» toifadagi, balki jinoyat sodir etilgan barcha mahallalarda samarali tizim asosida tashkil qilinmoqda. Albatta, bu huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish samaradorligini yanada oshirishi tayin.

Jamshid XOLOV,
mayor.

IJTIMOIY ҲИМОЯ

ҲАРБІЙ ХИЗМАТЧИЛАРГА ҚАТОР ИМТИЁЗЛАР БЕРИЛМОҚДА

Президентнинг қарори билан:

– 2025 йил 1 мартдан ҳарбий хизматчиларга тураржойни ижарага олганлик (ижарада турганлик) учун тўланадиган ҳар ойлик пул компенсацияси миқдори 20 фоизга оширилади;

– 2025 йил 1 июндан қонунчилик ҳужжатларига мувофиқ тасдиқланган ипотека кредитларини ажратиш кўрсаткичлари асосида уй-жой билан таъминланадиган, календарь ҳисобида 10 йилдан ортиқ ҳарбий хизматни ўтаган ҳарбий хизматчиларга тураржой сотиб олиш (қуриш) учун ипотека кредити олинishiда ажратиладиган дастлабки бадал миқдори уй-жой ҳисобланган қийматининг 35 фоизи миқдорида белгиланади.

– 2025 йил 1 мартдан йил якунигача Қуролли Кучларнинг контракт



бўйича хизмат қилаётган, амалдаги сарф-харажатлар доирасида тураржой билан таъминланмаган оддий аскар, сержант ва офицерлар таркибидаги ҳарбий хизматчиларга тураржойни ижарага олганлик (ижарада турганлик) учун:

– Тошкент шаҳрида – БҲМнинг 4,8 бараваригача миқдорда;

– Нукус шаҳри ва вилоятлар марказларида – БҲМнинг 3,6 бараваригача миқдорда;

– бошқа шаҳарлар, туман марказлари ва аҳоли пунктларида БҲМнинг 2,4 бараваригача миқдорда ҳар ойлик пул компенсацияси тўловлари белгиланди.

Оила аъзолари 3 киши ва ундан ортиқ бўлган тақдирда ҳарбий хизматчиларнинг ушбу пул компенсацияси миқдорлари 50 фоизга оширилади.





Наши корреспонденты сообщают



■ Кашкадарьинская область

В управлении Центрального банка области прошла встреча на тему «Раскрытие киберпреступлений: совместные оперативные меры».

Начальник УВД области полковник Абдувохид Исмоилов провел критический анализ криминогенной ситуации в сфере киберпреступлений, отметив, что недочеты коммерческих банков при обслуживании клиентов ведут к увели-

чению числа киберпреступлений. Он подчеркнул, что борьба с этим злом должна осуществляться совместными усилиями правоохранительных органов и банков.

Специалистами отмечалась значимость своевременного ин-



формирования клиентов об оптимальных алгоритмах действий при краже средств с банковских пластиковых карт, мерах по устранению вредоносного программного обеспечения (вирусов) с телефонных устройств и т.д.

Было подвергнуто критике то, что в банках оформляют на имена граждан более трех карт одного типа без изучения причин их оформления. Позднее эти карты продаются через

социальные сети, и кибермошенники выводят деньги за границу с их помощью.

На мероприятии предложено разработать конкретные меры для устранения подобных ситуаций, предоставлять информацию о кибермошенниках и их методах увода денежных средств при выдаче пластиковых карт гражданам. Разъяснительные мероприятия по предотвращению киберпреступлений продолжаются.

■ Сырдарьинская область

В целях обеспечения выполнения требований постановления Президента Республики Узбекистан «О мерах по созданию безопасной среды и дальнейшему повышению эффективности системы раннего предупреждения правонарушений в махаллях республики в 2025 году» в рамках профилактического мероприятия «Безопасная территория» заместитель начальника областного УВД – начальник Службы общественной безопасности подполковник Жонибек Болтаев провел инструктаж для сотрудников, привлеченных к ночной службе в Сырдарьинском районе.

Подчеркнуто, что необходимо нести службу бдительно, строго в соответствии с требованиями нормативных актов.



■ Андижанская область



По инициативе Управления профилактики правонарушений СОБ УВД области проводятся мероприятия по предупреждению противоправных действий в семейно-бытовой сфере.

Сотрудниками управления и его подразделений осуществляется адресная профилактическая работа с семьями с нездоровой нравственно-психологической обстановкой, а также с лицами, которым выданы охранные ордера. Безработных женщин знакомят с имеющимися вакансиями, оказывается содействие в профессиональной подготовке.



MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT DARSII

Biz erkin va farovon, demokratik, dunyoga ochiq mamlakatni barpo etishda butun xalqimiz qatori xotin-qizlarimiz ham beqiyos hissa qo'shayotganini albatta yuksak qadrlaymiz. ...Oila tayanchi, jamiyat ustuni bo'lgan onalarimiz, ayollarimiz hayotdan rozi bo'lsa, butun xalqimiz hayotdan rozi bo'ladi.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

AYOL QADRI ULUG'LANGAN YURT

(8-MART – XALQARO XOTIN-QIZLAR KUNI)

Ayol – mehr-muhabbat, sadoqat va fidoyilik timsoli. Yur-timizda ayollar azaldan ulug'lab, hamisha ardoqlab-asrab kelingan. Zotan, har qanday jamiyat va davlatning qay darajada xalqparvar hamda adolatli ekani uning xotin-qizlarga bo'lgan munosabati, g'amxo'rliqi bilan belgilanadi.

So'nggi yillarda xotin-qizlarning og'irini yengil qilish, huquq va manfaatlarini himoyalash, bandligini ta'minlash, opa-singillarimiz o'rtasida ishbilarmonlik, tadbirkorlik muhitini kuchaytirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Bugungi kunda mamlakatimiz aholisining qariyb yarmini tashkil etadigan ayollarning qonuniy huquq va manfaatlarini ta'minlash, ularning jamiyatdagi o'rni va nufuzini oshirish, bandligini ta'minlash, iste'dodi hamda qobiliyatini yuzaga chiqarish, gender tenglikka erishish borasida izchil ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Avvalo, xotin-qizlarni barcha jabhalarda qo'llab-quvvatlashga qaratilgan huquqiy baza yaratildi. Jumladan, ayollar huquqlari himoyasini tubdan kuchaytirish, ularning turmush sharoitini yaxshilash, ta'lim olishi va o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishlari uchun keng imkoniyat yaratishga qaratilgan 4 ta qonun, davlatimiz rahbarining 10 ga yaqin farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 14 ta qarori qabul qilindi. Qator xalqaro hujjatlar ratifikatsiya qilinib, milliy qonunchiligimiz asoslari takomillashtirildi. Yangilangan Konstitutsiyamizda esa xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligi, xotin-qizlar hamda erkaklarga davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek, jamiyat va boshqaruv hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlar yaratib berilishi belgilab qo'yildi.

Xuddi shuningdek, xotin-qizlarning siyosiy hayotdagi faolligini oshirishga e'tibor qaratilib, Saylov kodeksi-ga deputatlikka nomzodlar ko'rsatilayotganda ayollar sonining eng kam miqdorini nomzodlar umumiy sonining 30 foizidan 40 foiziga oshirishni nazarda tutuvchi o'zgartirishlar kiritilgani ham e'tiborga molikdir.

So'nggi yillarda xotin-qizlar muammolarini o'rganish va hal etishga qaratilgan ishlar yangi bosqichga ko'tarildi. Birgina «Ayollar daftari» bo'yicha katta miqdordagi mablag'lar ajratilib, minglab xotin-qizlarni qiynab kelayotgan muammolarga barham berilyapti. Minglab opa-singillarimiz mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasb-hunarlar-ga, tadbirkorlikka o'qitilmoqda, ularga imtiyozli kreditlar ajratilmoqda.

Ma'rifatparvar bobolarimiz bejiz «Onalarni o'qitsak, millatni o'qitgan bo'lamiz» degan fikr bilan o'zbek ayollarining



ilm-fan bilan shug'ullanaman, degan xotin-qizlar uchun keng imkoniyatlar bor. Ularga maxsus kvotalar ajratilgan, shartnoma to'lovlari davlat byudjetidan qoplanmoqda, imtiyozli kreditlar taqdim etilyapti.

Bunday g'amxo'rlik qizlarimizda bilim olishga bo'lgan rag'batni, kelajakda jamiyatda o'zining munosib o'rnini to-

oxirgi yetti yilda 5 ming nafardan ortiq xotin-qizlar fan doktori (DSc) va o'z sohalar bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini muvaffaqiyatli himoya qilgani ham quvonarlidir.

Umuman olganda, hozirgi vaqtda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtiroki kengayib, davlat va jamiyat boshqaruvidagi o'rni va roli tobora oshib bormoqda. Xususan, xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi ulushi 2017-yildagi 27 foizdan 35 foizga yetgani, ayniqsa, ahamiyatli. Parlament faoliyatida esa ularning ulushi 32 foizga yetdi. Bu Birlashgan Millatlar Tashkiloti tavsiyalariga to'la mos keladi. Shu bilan birga, so'nggi besh yil ichida yurtimizda tadbirkor ayollar safi ikki barobar kengayib, o'z biznesini yo'lga qo'ygan tadbirkor xotin-qizlar soni 205 ming nafardan oshdi.

Boshqa ko'plab sohalar-dagi kabi, mamlakatimiz ichki ishlar organlarida ham ko'plab fidoyi xotin-qiz xodimalar xizmat qilmoqda. Ular orasida yurt tinchligi va xalq osoyishtaligini ta'minlash yo'lidagi fidokorona xizmatlari tufayli davlatimizning yuksak mukofotlari bilan taqdirlangan, turli xalqaro sport musobaqalarida, nufuzli ko'rik-tanlovlarda

g'olib chiqqan, umuman, xizmatda va hayotda ulkan muvaffaqiyatlarga erishganlari bisyor. Erkaklar bilan yelka-yelka, bir safda turib xizmat qilayotgan ana shunday opa-singillarimiz bilan har qancha faxrlansak arziydi.

Xullas, bugun fermerlik harakati deysizmi yoki biznes, ilm-fan, tibbiyot, ta'lim-tarbiya, madaniyat va san'at sohalarini olasizmi, birontasini ayollarning ishtirokisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Mamlakatimizda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyatdagi roli va nufuzini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar xalqaro miqyosda keng e'tirof etilmoqda. Masalan, Jahon bankining o'tgan yili e'lon qilingan «Ayollar, biznes va qonun» nomli yillik hisobotida O'zbekiston gender tenglik sohasida dunyodagi eng tez rivojlanayotgan 5 ta mamlakat qatorida qayd etildi. 190 ta ko'rsatkich bo'yicha baholangan mazkur indeksda mamlakatimizda, ayniqsa, mehnat munosabatlari va oiladagi zo'ravonlikka qarshi kurash sohasida amalga oshirilgan islohotlar muvaffaqiyatli deb topilgan.

Turli soha va tarmoqlarda fidokorona xizmat qilayotgan ayollarning mehnatini munosib qadrlash davlatimizning doimiy e'tiborida. Mustaqillik yillarida Vatanimiz va xalqimiz oldidagi munosib xizmatlari uchun ayollarimizdan 17 nafari eng oliy mukofot – «O'zbekiston Qahramoni» unvoni bilan taqdirlandi. Qolaversa, 11 nafar ayol fan sohasidagi eng yuksak darajaga, ya'ni akademik unvoniga sazovor bo'lganini, minglab xotin-qizlarimiz davlatimizning faxriy unvon, orden va medallari bilan taqdirlab kelinayotganini el-yurtimizning ularga nisbatan yuksak ehtiromi ifodasi sifatida baholash joiz.

Binobarin, Prezidentimiz ta'бири bilan aytganda, «Qadr ayoldan boshlansa, qadrimiz yanada baland bo'ladi!».

Kamol OLLOYOROV,
o'z muxbirmiz.



Maqolani
qoraqalpoq tilida
o'qish uchun
QR-kodni
skaner qiling.



SOHA FIDOYILARI

JAHLINI JILOVLAY OLMAGACH...

Qoidani buzgani uchun ogohlantirilgan va tartibga chaqirilgan haydovchilarga inspektorning e'tirozli so'zlari hamisha ham yoqavermaydi. Ba'zan qo'rqib, ba'zan jahl ustida haydovchilar xodimning hayoti va sog'lig'iga jiddiy zarar yetkazishadi. Buxoro viloyatida ham shunga o'xshash voqea yuz berdi. Bu haqda viloyat IIB JXX YHXB 5-safarbarlik guruhi YPX katta inspektori, katta serjant Sunnatullo Hotamov quyidagilarni gapirib berdi.

– Joriy yilning 28-yanvar kuni soat taxminan 12:30 larda Jondor tumani markazida xizmat olib borayotgan edim. «Cobalt» rusumli avtomashina «Tinchlik» mahallasi Mahmud Torobiy ko'chasining qatnov qismida to'xtab turganligi bois haydovchiga o'zimni tanishtirib, sodir etgan qoidabuzarligini tushuntirdim. So'ng ushbu holat yuzasidan ma'muriy bayonnoma rasmiylashtirishimni bildirdim. Haydovchi hujjatlarini bergach avvaliga meni haqoratli so'zlar bilan so'ka boshladi. Uni bir necha marotaba tartibga chaqirishga urindim. Haydovchi esa jahl bilan avtomashinani yurgizib, to'g'ri ustimga qarab haydadi.

Voqeaning bu yog'ini bayon etadigan bo'lsak, haydovchi transport vositasining old chap qismi bilan inspektorni sudrab ketadi. Natijada inspektor yo'lining chap birinchi bo'lagidan shu yo'nalishda harakatlanib kelayotgan «Matiz» rusumli avtomashinaga borib uriladi.

– Katta serjant Sunnatullo Hotamov zudlik bilan Jondor tumani tibbiyot birlashmasiga olib borildi va

shifokorlar tomonidan birinchi tibbiy yordam ko'rsatildi, – deydi viloyat IIB YHXB Axborot xizmati boshlig'i, kaptan Ulug'bek Shukurlayev. – S.Hotamovda jiddiy tan jarohatlari aniqlandi. Hozirda haydovchiga nisbatan qonuniy chora ko'rish uchun tergov harakatlari olib borilmoqda. Afsuski, haydovchining o'zi esa qilgan qilmishining naqadar xavfli ekanini kech anglab yetdi.

«Jahl chiqqanda, aql ketadi», deyishadi. Ammo bu o'rinda haydovchining jahlini chiqargan muammoga uning o'zi aybdor. Qolaversa, qoida hamma uchun barobar. Uni buza turib ham alamini xizmatdagi insondan olish borib turgan insofsizlik. Ichki ishlar organi xodimi ham siz-u biz kabi kimningdir oilasi tirtgagi ekanini aslo unutishga haqqimiz yo'q. Birgina noo'rin harakat kimnidir hayotdan olib ketishi yoki bir umrga mayib-majruh qilishi mumkin. Hozirda inspektor-ga shifoxonada zaruriy muolajalar ko'rsatilmoqda.



Katta serjant Sunnatullo Hotamov 1988-yil Qorako'l tumanida tug'ilgan. U Buxoro avtomobil yo'llar kollejini tugatib, 2010-yili IIV Akademiyasining Serjantlar tarkibini tayyorlash bo'yicha oliy kurslarida tahsil oladi. Shundan so'ng, viloyat IIB JTSB PPX batalyoni maxsus otryadi bo'linmasi

xodimi lavozimida xizmat qiladi. 2018-yildan buyon esa viloyat IIB YHXB katta inspektori lavozimida faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Mirzoqul AHADOV,
o'z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.

QILNI QIRQ YORIB

SINCHKOV NIGOHI BILAN

Jinoyat joyini o'rganish – dalillarni topish, yig'ish va hujjatlashtirish, gumon qilinuvchilarni aniqlash uchun barmoq izlari tahlili, qalbaki hujjatlarni tekshirishda ekspert-kriminalistdan kuchli tahlil qilish va diqqat bilan ishlash qobiliyatiga ega bo'lish, sabr-toqat va aniqlik bilan xulosani taqdim eta bilish talab etiladi.



Namangan viloyati Davlatobod tumani IIB Ekspert-kriminalistika guruhi xodimlari o'tgan yili tuman hududida sodir etilgan 284 ta hodisa va jinoyat joyini ko'zdan kechirishda ishtirok etdi. Jarayonda 219 ta ashyoviy dalillar olin-

gan. 54 ta tadqiqot bajarilgan. 18 ta jinoyat qo'l barmoq izlari orqali «shaxsni identifikatsiya qilish» tizimi yordamida fosh etildi. 12 ta jinoyat fotosurat va videoyozuvlar yordamida aniqlangan. Soha mutaxas-

sislari 2500 ga yaqin tezkor qidiruv va tergov harakatlarida ishtirok etishgan. Shaxsan o'zim ishtirokimda 62 ta ekspertiza ishlari bajarildi. Ayrim ishlarni misol tariqasida keltirib o'taman.

2024-yil 6-avgust kuni «Navbahor» mahallasida yashovchi fuqaroning xonadonida bosh sohasida tan jarohati olgan holatda jasad topildi. Qotil iz qoldirmaslikka harakat qilgan. Lekin

urgan. Yetkazilgan tan jarohati tufayli uy bekasi vafot etgan. Bu kabi misollarni ko'plab keltirish mumkin.

– Yil boshidan buyon 40 marotaba voqea joyiga chiqdim. 13 ta tadqiqot va 9 ta ekspertiza ishlarini amalga oshirdim. Bundan tashqari, targ'ibot-tashviqot ishlari ham olib bormoqdamiz. Xususan, yaqinda Davlatobod tumani madaniyat markazida Ekspert-kriminalistika markazida joriy etilgan yuridik va jismoniy shaxslarga ekspertlik ilmiy-tadqiqot hamda axborot xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha targ'ibot ishlari olib borildi.

Shuningdek, tuman tibbiyot birlashmasi ko'p tarmoqli markaziy poliklinikasi xodimlari o'rtasida ham tushuntirish ishlari olib borildi. Zimmamizdagi mas'uliyatli vazifalarni amalga oshirish jarayonida dalillarni sinchkovlik bilan tahlil qilayotganimiz samara bermoqda.

Azamjon BABAYEV,
Davlatobod tumani IIB
EKG katta eksperti,
mayor.

O'tgan yilning fevral oyida tungi taxminan soat 3:00 larda Namangan shahrida A.Hamidullayevga tegishli «Nexia-2» rusumli avtomashina noma'lum shaxslar tomonidan o'g'irlab ketilgan. Ushbu holat yuzasidan topilgan avtomashinani ko'zdan kechirish jarayonida olingan barmoq izlari Yangiqo'rg'on tumani «Birlik» mahallasida yashovchi 2006-yilda tug'ilgan fuqaro A.A.ga tegishli ekanligi aniqlandi.

«Orzu» mahallasida yashovchi H.A. ismli ayol tilla buyumlari yo'qolganligi haqida murojaat qiladi. Ushbu holat yuzasidan voqea joyiga borib o'rganilganda, hodisa joyiga kirishdagi ikki qanotli eshikni ko'zdan kechirish vaqtida olingan qo'l barmoq izlari 1985-yilda tug'ilgan N.E.ga tegishli ekanini ma'lum bo'ldi.

xonadondagi daftarda uning barmoq izlari qolib ketgan. Ular 1975-yilda tug'ilgan A.U. ga tegishli ekanini ayon bo'ldi.

Aniqlanishicha, marhuma qarzdor bo'lgan. Gumon qilinuvchi undan pullarini olgan kelganida o'rtalarida janjal chiqqan. Shunda gumon qilinuvchi mehmonxonadagi shisha idish bilan ayolning boshiga bir necha marotaba



Урок духовности и просвещения

СТРАНА, ГДЕ ПОЧИТАЮТ ЖЕНЩИН

Женщина – светоч жизни, воспитательница нации. Ее забота и любовь окрыляют. Если счастлива женщина, счастливо все общество.

В Узбекистане обеспечение прав и интересов женщин, повышение их экономической, социальной, политической активности определены приоритетными направлениями проводимой политики. Эта деятельность осуществляется на основе принципа «Ни одна женщина не останется без внимания государства и общества».

Согласно Стратегии «Узбекистан – 2030» совершенствуется национальное законодательство, открывающее для соотечественниц новые возможности, неуклонно утверждается гендерное равенство.

Женщины проявляют инициативу во всех сферах общественной жизни. Их доля составляет 38 процентов депутатов Законодательной палаты и 27 процентов членов Сената. В политических партиях количество соотечественниц выросло с 40 до 47 процентов. Женщины составляют 77 процентов занятых в здравоохранении, в образовании – 74 процента, в отраслях экономики и промышленности – 46 процентов. Порядка 2 тысяч женщин занимают руководящие должности в государственных и общественных организациях.

Значительны результаты в развитии женского предпринимательства. За последние пять лет число предпринимательниц увеличилось вдвое, наладили свой бизнес свыше 205 тысяч женщин.

На новый уровень поднята работа по разрешению вопросов, волнующих соотечественниц. Этому способствует совместная деятельность Комитета семьи и женщин, Республиканской комиссии по вопросам повышения роли женщин в обществе, гендерного равенства и семьи, движения «Оқилад аёллар», женских активисток в махаллах, инспекторов по вопросам женщин органов внутренних дел и др. В результате изучения положения женщин в разрезе домохозяйств оказана адресная помощь более 690 тысячам семей, оздоровлена нравственно-психологическая атмосфера в 116 тысячах семей. Совершенствована

нию механизмов поддержки соотечественниц служит запуск в рамках платформы *hotin-qizlar.uz* модуля изучения и системного решения проблем женщин на уровне «махалля – район – область – республика».

В стране большое внимание уделяется образованию соотечественниц, ибо, как отмечали джадиды-просветители, «обучая дочерей, мы обучаем нацию». Сегодня идеи джадидов претворяются в жизнь. Внедрена систе-



На снимке: полковники Ильсия Байкабилова и Луция Мадрахимова.

ма непрерывного образования и подготовки конкурентоспособных на рынке труда женщин-специалистов. Более половины студентов вузов, или свыше 653 тысяч, составляют девушки. Среди молодежи, обучающейся в магистратуре, доля девушек еще выше – около 14 тысяч. Это почти 60 процентов от общего числа магистрантов. Контракты девушек, обучающихся в магистратуре государственных вузов, оплачиваются из бюджета.

Важно, что у девушек растет интерес к прикладным и точным наукам. К примеру,



47 процентов молодежи, обучившейся в рамках проекта «Один миллион программистов», составили девушки.

Женщины эффективно работают в сфере науки. Только за последние семь лет свыше 5,2 тыс. женщинам присвоены ученые звания докторов наук (DSc) и докторов философии (PhD) в разных направлениях. В вузах преподают и ведут научные изыскания более 14 тысяч соотечественниц.

Указанное свидетельствует об огромном потенциале наших женщин, способных достигать самых больших высот. За годы независимости 17 соотечественниц удостоены звания «Узбекистон Қахрамони», 11 женщин – высшей степени в области науки – звания академика, тысячи женщин награждены почетными званиями, орденами и медалями. Как подчеркнул Президент Шавкат Мирзиёев, «любить Родину, преданно служить ей, воспитывать достойных граждан своей страны – это самая великая и



В Ташкенте в Доме прав человека состоялась презентация сборника «Конвенция о ликвидации всех форм дискриминации в отношении женщин». Мероприятие организовано Национальным центром Республики Узбекистан по правам человека.

В этом году отмечается 30-летие (18 августа 1995 года) ратификации Узбекистаном Конвенции о ликвидации всех форм дискриминации в отношении женщин. Документ был принят резолюцией 34/180 Генеральной Ассамблеи ООН 18 декабря 1979 года. В силу Конвенция вступила 3 сентября 1981 года после ратификации двадцатью государствами.

Конвенция признана международным законом, посвященным гражданским, политическим, социальным, экономическим и культурным правам женщин, является одной из девяти основных конвенций ООН по правам человека. На сегодняшний день ее ратифицировали 189 стран.

Принципы и положения Конвенции отражены в законодательстве Узбекистана. Статьи 42, 58 обновленной Конституции страны предусматривают предотвращение нарушений трудовых прав женщин,

почетная миссия в мире. Наши заботливые, мудрые и неутомимые женщины всегда демонстрируют особую самоотверженность в исполнении этой миссии».

Опыт Нового Узбекистана в сфере поддержки женщин получает признание ООН, Межпарламентского союза, Всемирного банка и отражен в международных индексах. Обращается внимание на то, что деятельность в данной области осуществляется на твердой, последовательной и целостной основе. В 2024 году наша страна набрала 72,8 балла по Индексу гендерного равенства и государственного управления. В ежегодном докладе «Женщины, бизнес и закон», оценивающем по 10 показателям положение дел в 190 государствах мира, признаны успешными проводимые в республике реформы в сфере трудовых отношений и борьбы с насилием в семье.

Голос женщин Узбекистана звучит с авторитетных трибун. Значимым событием стало проведение в Ташкенте Женского форума ШОС, в ходе которого обсуждены гендерные аспекты регионального сотрудничества. Мероприятие, проходившее в рамках председательствования Узбекистана в ШОС, способствовало установлению «новых точек» взаимодействия в повышении активности женщин в государственной, общественной, экономической жизни.

Радик ТУМΠΑРОВ,
соб. корр.



создание для них достойных условий жизни и труда, обеспечение равных прав и возможностей женщин с мужчинами во всех сферах.

В республике принято более 40 нормативно-правовых документов, комплексно обеспечивающих права и интересы женщин. В их числе законы «О гарантиях равных прав и возможностей женщин и мужчин», «О защите женщин от притеснения и насилия», «Об охране репродуктивного здоровья граждан» и др.



SOHAVIY XIZMATLARDA

YO'L XAVFSIZ — MANZIL YAQIN



xodimlari – safdorlar Laziz G'ayratov, Bekzod Eshpo'latov va Abbos Do'stov xizmatda barcha hamkasblariga o'rnak bo'lishyapti. Bundan tashqari, «O'zbekiston» yo'li bekatlarida xizmat olib borayotgan 3-guruh xodimi, safdor Madina Umarova va 1-guruh xodimi, safdor Yaroslav Savchinning fidokorona xizmatini ham alohida e'tirof etish joiz.

– Metropolitenda xavfsizlikni ta'minlash, xizmat paytida hushyorlikni oshirib, yo'lovchilar bilan bo'ladigan muloqotda muomala madaniyatiga rioya qilish muhim vazifamiz hisoblanadi, – deydi podpolkovnik Ilhom Abdullayev. – Bundan tashqari, xodimlarimiz «Tig'», «Yoshlar orasida giyohvandlik moddalari va psixotrop dori vositalari tarqalishiga qarshi kurashish», «Qidiruvdagi shaxslarni aniqlash» kabi tezkor-profilaktik tadbirlarda munosib qatnashishmoqda. «Tig'» tadbiri bo'yicha



(Davomi. Boshlanishi 1-betda.)

Bosh kentimizning 11 tumanini o'zaro bog'lagan, 72 km uzunlikdagi yerosti va yerusti metrosida yo'lovchilarning xavfsiz harakatlanishi IIV Transport va turizm obyektlarida xavfsizlikni ta'minlash departamenti Metropolitenda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasining fidoyi xodimlari zimmasida.

Boshqarmaning podpolkovnik Ilhom Abdullayev rahbarlik qilayotgan 2-batalyoni xodimlari metropolitenning «O'zbekiston» yo'nalishidagi 13 ta bekat, shuningdek, «Paxtakor» va Alisher Navoiy yo'li o'tish bekatlarida xizmat olib borishadi. Ikki yo'nalishni bir-biri bilan bog'laydigan mazkur bekatlar doimo yo'lovchilar bilan gavjum bo'ladi. Albatta, bu batalyon xodimlari zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Buni yaxshi anglagan 1-guruh xodimi, serjant Azamat Xudoyberganov, 2-guruh



11 ta, psixotrop moddalar bilan bog'liq 2 ta, tilanchilik bo'yicha 8 ta holat aniqlandi. Qidiruvda bo'lgan 2 nafar fuqaro ushlendi. Masalan, joriy yilning 5-fevral kuni soat taxminan 17:30larda Alisher Navoiy bekatida xizmat olib borayotgan 2-otryadning 2-guruhi safdor xodimi D.Ahrorov tomonidan qidiruvdagi fuqaro D.A. ushlanib, Chilonzor tumani IIOFMB-ga topshirildi.

Abu KENJAYEV,
o'z muxbirimiz.



ИЛМДА ФИДОЙИЛИК ЗАРУР

Давлат ва жамият ривожда, барча жабҳаларга замонавий ютуқларни олиб киришда илм-фаннинг ўрни бекиёс. Бунга инсониятнинг кўп минг йиллик ўтмиши далилатдир. Ўзбекистон Қаҳрамони, Олий Мажлис Сенати аъзоси, Ўзбекистон Фанлар академиясининг президенти, физика-математика фанлари доктори, академик Шавкат Аюпов билан шу мавзуда суҳбатлашдик.

– Тадқиқот йўналиши сифатида нега айнан математика фанини танлагансиз?

– Ўқувчилик йилларимда барча фанларни севиб ўрганардим. Ҳатто уларнинг кўпчилигидан фан олимпиадаларига ҳам қатнашганман. Чунки инсон келажакда қайси соҳа вакили бўлишини олдиндан билмайди. Турли фанлардан олинган билимлар эса дунёқарашни янада кенгайтириб, ҳаётда ўз ўрнини топишда муҳим аҳамият касб этади. Бу ҳақиқат менинг тақдиримда ҳам ўз тасдиғини топди. Мантикий фикрлаш қобилиятим устунлиги сабаб, математика фанига ўзгача меҳр қўйдим. Айниқса, юқори синфларда бу фанга қизиқишим янада ортди.

Мактаб ва туман миқёсидаги олимпиада баҳсларида юқори натижаларни қайд этганимдан сўнг, пойтахт босқичига йўлланганимни қўлга киритдим. Бу беллашувлар ҳозирги Ўзбекистон Миллий университетида етук математик олим, академик Саъди Сирожиiddинов раҳбарлигида ўтказилар эди. Мен унда қатнашиб, голиб бўлдим ва шу инсоннинг назарига тушдим. Самарқанд шаҳрида ташкил этилган республика босқичида ҳам пешқадамликни қўлдан бой бермадим. Россиянинг Новосибирск шаҳрида жойлашган «Академиклар шаҳарчаси»даги ёзги мактабда олимпиадага тайёргарлик вақтида математик бўламан, деб узиликесил қарор қабул қилганман.

Раҳматли отам фалсафа фанлари номзоди, профессор, II жаҳон уруши қатнашчиси Абдулла Аюпов интилишларимни қўллаб-қувватлаб, билимимни янада кучайтириш учун барча шароитларни яратиб берди. Натижада мактабни олтин медаль билан битириб, Тошкент давлат университетининг механика-математика факультети талабаси бўлганман.

– Устозларингиз ҳақида гапириб берсангиз.

– Ҳалигача эсимда. Ўқувчилик йилларимда мактаб деворида академиклар Қори Ниёзий, Тошмуҳаммад Саримсоқов ва Саъди Сирожиiddиновнинг суратлари осиглиқ турарди. Мен қани энди шу инсонларга ўхшасам, уларга шогирд тушсам, деб орзу қилардим. «Яхши ният – ярим давлат» деганларидек, йиллар ўтиб, бу орзумимга эришдим. Университетда кафедраларга тақсимлаш вақтида айнан академик

Тошмуҳаммад Саримсоқов раҳбарлигидаги функционал анализ кафедрасига ўтганман. Шундан бошлаб, бутун илмий ва илмий-ташқилий фаолиятим у киши билан бирга ўтди. Ҳатто мен академикликка сайланганимда ҳам устозим ҳаёт эди. Кейинчалик мен устозим асос солган «Тошкент функционал анализ илмий мактаби» анъаналарини давом эттириб, ҳозирги замон математикасининг энг долзарб муаммолари бўйича илмий тадқиқотларни йўлга қўйиш, унинг савиясини юқори даражага кўтариш учун тиним билмай изландим.

Ҳаётимда яна бир устозим, академик Жовот Ҳожиёв ҳам муҳим ўрин тутган. 1974 йили дорилфунунни имтиёзли диплом билан тамомлаганимдан сўнг, аспирантурага қабул қилиниб, унинг раҳбарлигида илмий изланишлар олиб бордим. 1977 йили

МАЪЛУМОТ ЎРНИДА

Академик Шавкат Аюпов Тошкент давлат университетининг функционал анализ кафедраси мудири, Вазирлар Маҳкамаси фан ва таълим бўлими мудири, Президент Девонининг бош консультанти, Фанлар академияси математика институти директори, Вазирлар Маҳкамаси қошидаги Олий аттестация комиссиясининг раиси, Олий ва ўрта махсус таълим вазирининг ўринбосари лавозимларида ҳам фаолият кўрсатган.

физика-математика фанлари номзодлигини, 1983 йилда эса докторлик диссертациясини ҳимоя қилдим.

Ана шундай устозлар ишининг давомчиси сифатида 8 та монография ва 300 дан ортиқ илмий мақолалар эълон қилдим, уларнинг кўпчилиги чет давлатларнинг нуфузли халқаро илмий журналларида нашр этилди. Шунингдек, ўқув юртлари учун 8 та дарслик ва ўқув қўлланмага муаллифлик қилдим. Ҳозиргача 14 нафар фан доктори ва 40 дан ортиқ фан номзоди тайёрладим. Улардан кўпчилиги юртимиз ва хориждаги университет ва илмий марказларда муваффақиятли фаолият олиб боришмоқда. Бир сўз билан айтганда, академикларнинг изидан бориб, академик бўлдим.



– Илм йўли ҳеч бир даврда текис ва равон бўлмаган. Шу маънода, бошингиздан кечирган қийинчиликлар ҳақида гапириб берсангиз.

– Тўғри айтасиз, бизнинг давримизда фаннинг қайсидир соҳасига ихтисослашган мактаблар ёки қўшимча дарс бериб дунёқараши-мизни бойитадиган репетиторлар бўлмаган. Шу боисдан мен билимимни янада ошириш мақсадида дарсларимни тугатгач, шаҳар марказидаги таълим муассасаларида ташкил этилган тўғаракларга беш йил давомида қатнадим. Чарчаганимда дарахтларнинг соясида бироз нафас ростлардим. Уйга келгандан кейин кечаси алламаҳалгача дарс қилардим. Ана шундай машаққатлар эса, кейинчалик ўзининг ширин мевасини берди. Яъни, мактабни тугатаётган пайтимда рус ва инглиз тилларини чет тиллар институтининг талабалари даражасида ўзлаштирган эдим. Бу эса илм-фаннинг энг сўнгги ютуқларидан баҳраманд бўлишимда ва илмий ишларимда муҳим пойдевор бўлди. Чунки ўша пайтда соҳага оид адабиётларнинг кўпи хорижий тилларда эди. Бунинг устига чет элдаги илмий конференция ва учрашувларда ҳам аксарият маърузалар рус ёки инглиз тилларида бўлар эди.

– Илм-фаннинг жамият тараққиётида тутган ўрни тўғрисидаги фикр-мулоҳазаларингизни билмоқчи эдик.

– Албатта, илмий изланишлар амалиётга жорий қилинсагина натижа беради. Айниқса, XIX аср охири XX аср бошларидан илм-фандаги ютуқлар жамият тараққиётида муҳим аҳамият касб эта бошлади. Яъни, халқ ҳўжалигининг

турли тармоқларида ундан унумли фойдаланиб, ишлаб чиқариш ва техника ривожда муносиб пойдевор бўлди. Жумладан, табиий ва синтетик материаллардан маҳсулотларни оммавий ишлаб чиқариш, машиналардан кенг фойдаланиш, ишлаб чиқаришнинг конвейерли линиялари, завод-автомат ва саноат роботларини яратиш, ахборот ва янги технологияларнинг жадал ривожланиши, компьютерлаштириш ва жамиятнинг ахборотлашуви, ишлаб чиқаришнинг интеллектуаллашуви рўй берди. Натижада, инсонларнинг ҳам турмуш тарзи яхшиланиб, унинг фаровонлик даражаси янада оширилди. Бу анъана ҳозиргача давом этмоқда.

Олимларимиз қанчалик кўп ва сифатли ихтироларни амалга оширса, иқтисодиётимиз ҳам шунчалик мустаҳкамланиб бораверади. Бунинг учун илм-фаннинг етарли даражада замонавий технология ва лабораториялар билан таъминлангани ҳам муҳим ўрин тутди. Шунда етук ва малакали кадрлар қатлами етишиб чиқади.

– Илм йўлидан боришни мақсад қилган ёшларга маслаҳатларингиз...

– Мақсад, илм, тил ва сабр. Айнан бу тушунчалар келажакда илм йўлидан бориб, жамият тараққиётига муносиб ҳиссасини қўшаман деган ёшларининг ҳаёт формуласи бўлиши керак. Чунки мактабни битираётган ҳар бир ўсмир келгусида қайси касбнинг бошини тутишини аниқ билиши лозим. Шунингдек, ўзи танлаган соҳага оид фанлардан ташқари, ҳеч бўлмаганда 2 та хорижий тилни ҳам билиши керак. Шунда фанга кириш осонроқ бўлади ва унинг чўққиларини эгаллашда машаққатларни енга олади.

– Юрагингизга тугиб юрган ва кўпчилик билан бўлишишни истаган фикр-мулоҳазаларингиз билан ўртоқлашсангиз.

– Кейинги пайтда баъзи бир инсонларнинг илмий даража ортидан қувиши натижасида, фандаги сифат тушиб кетмоқда. Натижада талабга жавоб бермайдиган диссертациялар кўпайиб кетяпти. Шунинг учун сон эмас, сифатни таъминлашимиз керак. Қисқа қилиб айтганда, оз бўлсин, соз бўлсин. Чунки мансаб, муваффақият учун турли йўللار билан олинган диплом ҳеч қачон фаннинг ривожига хизмат қилмайди, балки унинг даражасини тушириб юборади. Илмда фидойилик зарур, натижа ҳам шунга муносиб бўлади.

**Ўз мухбиримиз
Михли САҒАРОВ суҳбатлашди.**



QAROR VA IJRO

OSOYISHTALIKKA
ZAMIN HOZIRLASH

Davlatimiz rahbarining joriy yil 3-yanvardagi «2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Qashqadaryo viloyati ichki ishlar organlari tomonidan bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Qarshi shahridagi «qizil» toifaga mansub «Cho'lquvar» mahallasida «Yo'l xaritasi» asosida ijtimoiy profilaktika tizimi yo'lga qo'yilib, hududdagi ta'lim muassasalari, ko'chalar, shuningdek, jinoyat sodir etilishi ehtimoli yuqori bo'lgan joylarda videokuzatuv kameralari o'rnatilmoqda. Ko'ngilochar maskanlar, tungi klublar atrofidagi videokameralarning ish holati ko'zdan kechirildi. Bu jarayonda o'rnatilgan videokuzatuv kameralarini mahalla tayanch punkti va Ichki ishlar boshqarmasi vaziyatlar markaziga integratsiya qilish choralari ham ko'rildi.

Mahallada jinoyatchilikning oldini olish maqsadida markaziy avtomobil qatnov yo'li yoqasiga «SOS» tezkor chaqiruv tugmasi o'rnatildi.

Bundan tashqari, ayni paytda aholi xonadonlari qo'riqlovini qo'riqlash pultiga ulash yuzasidan targ'ibot ishlari olib borilib, ko'p qavatli uylarning kirish yo'laklariga tashvish tugmalari qo'yildi.

Qaror ijrosi doirasidagi ishlar izchil davom ettirilmoqda.

Sodiq RAHIMOV,
o'z muxbirimiz.

Qashqadaryo viloyati.

AYOL VA JAMIYAT

MEHRNING CHEK-CHEGARASI YO'Q

– deydi podpolkovnik Feruza Mirhayitova

Ichki ishlar organlarida xizmat qilish ayol uchun qanchalik mashaqqatli va mas'uliyatli vazifa bo'lmasin, Feruza Mirhayitova aslo ortga chekinmadi. Aksincha, ustozlari – iste'fodagi mayor Nazira Yusupova va iste'fodagi kapitan Maqsuda Do'smatovadan kasb sirlarini puxta o'rganishga intildi. Yillar o'tib, fidoyi va tajribali xodimaga aylandi. Ichki ishlar organlarida yigirma besh yil davomida samarali xizmat qilib kelayotgan lavhamiz qahramoni 6 yildan buyon esa Chirchiq shahar IIB HPB xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektori lavozimida ayollar huquq va erkinliklarini ta'minlashda fidoyilik ko'rsatib kelmoqda.

Lavhamiz qahramonining jonbozligi tufayli joriy yilda o'ndan ortiq oilalarning ajrimiga chek qo'yildi.

– Inson oilada tug'ilib, voyaga yetadi, hayotiy tushunchalarga, dunyoqarashga ega bo'ladi, – deydi podpolkovnik lavhamiz qahramo-



ni. – Oqila ayol o'zining zukkoligi, mehnatsevarligi va mehribonligi bilan oilada sog'lom muhitni yaratadi, millat davomchilarini tarbiyalaydi. Aynan shuning uchun oila asrab-avaylani-

shi, xotin-qizlarning haq-huquqlari ishonchli himoya qilinishi zarur.

Feruza opa hududlarda xotin-qizlar o'rtasida o'tkazilayotgan har xil yo'nalishdagi profilaktik tadbirlarda,

uchrashuvlar va davra suhbatlarida ishtirokchilarning huquqiy bilimini oshirishda sohaviy xizmatlar vakillari, ayniqsa, shahar «Oqila ayollar» harakati faollari bilan yaqin hamkorlik qiladi. Ana shunday hamkorlik natijasida hududda istiqomat qilayotgan ayollarning turli tadbirlarda, sport musobaqalarida faolligi oshib bormoqda.

– Bilib-bilmay jinoyatlarga qo'l urayotgan, xususan, odam savdosi bilan shug'ullanayotgan qonunbuzarlar orasida ayollarning ham uchrayotgani kishini jiddiy tashvishga soladi, – deydi Feruza Mirhayitova. – Boisi, ayol – oila ko'rki, xonadon fayzi, kelajak avlod tarbiyachisi. Mehrining, muhabbatining chekchegarasi yo'q. Bunday ta'rif va tahsinga loyiq inson jinoyatga qo'l urishi mumkinmi?!

O'z muxbirimiz.

Toshkent viloyati.

ORAMIZDAGI QAHRAMONLAR

HAYOTINI XAVFGA QO'YIB

Farg'ona shahrining Qirguli mavzesida xizmat o'tayotgan viloyat IIB Birinchi mintaqaviy hudud PPX otryadi 3-guruh inspektori, safdor Sarvar G'aniyev hamda safdor Nursultonbek Shamshiyev bilan birga yaqinda bir fuqaroning hayotini saqlab qoldi.

Ushbu holat tasvirga olingan lavha va suratlar ijtimoiy tarmoqlarda keng tarqaldi. Jamoatchilik esa o'z jonini xatarga qo'yib bo'lsa ham fuqaroning hayotini saqlab qolgan posbonlarga minnatdorlik bildirib, minglab ijobiy fikr va izohlar yozishdi.

– O'sha kuni belgilangan yo'nalish bo'yicha avtopatrul mashinasida ketayotgan edik, – deydi safdor Sarvar G'aniyev. – Yo'lda fuqarolar bizga bir shaxs ko'p qavatli uyning tomiga chiqib olgani va o'zini pastga tashlamoqchi bo'layotgani haqida xabar berishdi. Darhol aytilgan manzilga yetib bordik. Haqiqatan ham bir odam 4 qavatli uy tomining chetida tebranib turardi. Zudlik bilan tomga chiqib, fuqaro bilan muloqotga kirishdik. U spirtli ichimlik ichib olgan edi. Suhbat davomida oilaviy nizolar sababli qattiq stressga tushib qolgani ham ma'lum bo'ldi. Shu joyda ustozlarimiz bergan o'gitlar, psixologik treninglarda olgan bilimlarimiz bizga asqatdi. Yumshoqlikda gaplashib, asta-sekin uni fikridan qaytarishga harakat qildik, natijada ko'ngilsizliklarning oldini oldik.

Bu holatni pastda kuzatib turgan mahalla nuroniylari fidoyi patrullar haqiga duo qilishdi.

Lavhamiz qahramoni bundan tashqari, giyohvandlik vositalari savdosi bilan bog'liq jinoyatga ham o'z vaqtida chek qo'ydi. O'sha kuni xizmat hududida aylanib yurganida, spirtli ichimliklar sotiladigan do'konlardan birining oldida o'zini shubhali va tajovuzkorona tutayotgan bir shaxsga ro'baro' keldi.



Negadir fuqaro bezovta edi, sabrsizlik bilan kimnidir kutib turardi. Shundan so'ng safdor Sarvar G'aniyev va uning hamkasbi safdor Sherzod Sirojiddinov fuqaro bilan suhbatlashib, uning mastlik darajasini aniqlash maqsadida narkologiya dispanseriga olib borishdi. Dispanserda fuqaro nega bezovtalanayotgani fosh bo'ldi. Cho'ntagidan o'tkir hidli, giyohvandlik vositasi topilib, xolislar ishtirokida ashyoviy dalil tariqasida olindi.

Safдор Sarvar G'aniyev Oltiariq tumanida istiqomat qiladi. Oilali, ikki nafar farzandi bor. Hozirda xizmat bilan uzviy ravishda oliygohda sirtidan tahsil olmoqda. O'qishni tamomlagach ofitserlar tarkibiga o'tib, xalqimizga munosib xizmat qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

Abduvosit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.

Farg'ona viloyati.

MAHALLA TINCH – YURT TINCH

TOMORQADAN XAZINA TOPAYOTGANLAR



Quva tumanidagi «Qaqir» mahallasida har qarich yerdan ham unumli foydalanib, tuproqdan zar undiradigan mirishkor dehqonlar, sohibkor bog'bonlar yashaydi. Gulchilik va ko'chat yetishtirishda katta tajribaga ega mahalla ahli keyingi yillarda Prezidentimiz tashabbusi bilan yo'lga qo'yilgan «Bir mahalla – bir mahsulot» tamoyili asosida havas qilsa arzigulik ishlarni amalga oshirdilar.

Yaqinda ushbu mahallada «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilab berilgan yangi tizim asosida aholining tomorqa va ijara yerlaridan samarali foydalanish orqali daromadlarini oshirish chora-tadbirlari» mavzusida respublika ko'rgazmali seminari tashkil qilindi. Mamlakatimizning barcha hududlaridan sektor rahbarlari, Mahallalar uyushmalari, tijorat banklari rahbarlari, shahar-tuman kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi boshliqlari, og'ir toifadagi

mahallalarning hokim yordamchilari qatnashgan seminarda qaqirliklarning azm-u shijoati va tomorqaga bo'lgan mehri yuqori baho berildi. «Obod xonadon – tomorqadan boshlanadi» shiori ostida hududni namunal mahallaga aylantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishgan sektor rahbarlari ilg'or tajribalarni keng ommalashtirishni maqsad qildilar.

– Mahallamizda 5308 nafar aholi istiqomat qiladi, 865 ta xonadon bor, – deydi profilaktika inspektori, leytenant Shahzodbek G'aniyev. – Aholining deyarli 90 foizi tomorqasi va ijaraga olingan yerlarda ko'chatchilik, gulchilik bilan shug'ullanadi. Fuqarolarimiz doimiy foydali mehnat bilan band bo'lgani sababli jinoyat va huquqbuzarliklar kamayib boryapti. Joriy yilning o'tgan davrida jinoyatchilik qayd etilgani yo'q. Hamkorlikdagi ishlarni yanada kuchaytirib, chorak yakuni bo'yicha mahallani «sariq»dan «yashil» toifaga o'tkazmoqchimiz.

– O'n sotix tomorqamiz bor. Unda issiqxona tashkil qilib, gul yetishtirish bilan shug'ullanamiz, – deya suhbatga qo'shiladi Amirxon Teshaxo'jayev. – Shundan 2 sotix maydonga 10 ming tupdan ziyod lola piyozini qadaganmiz. Bahorning ilk kunlari sotuvga tayyor bo'ladi. O'rtacha 10 ming so'mdan sotilsa, shuning o'zidan 100 million so'm daromad qilish mumkin.

Mahalla yetiligi fuqarolarni yagona maqsad yo'lida birlashtirib, ularning muammolarini hal etib berishyapti. Profilaktika inspektorining qayd etishicha, yettilik a'zolari har kuni ertalab xonadonlarni aylanib, aholining muammolari bilan tanishib boradilar. Kimga imtiyozli kredit kerak, kimga huquqiy maslahat, kim mahsulotini sotishda qiynalyapti, yana kim ishsiz o'tiribdi, qo'yingki, har qanday masalaga mahallaning o'zida ijobiy yechim topiladi. Fuqarolar ovora bo'lib tuman markaziga qatnab yurmaydilar.

«Qaqir» bilan birga unga tutash «Qoraqum» va «Boyiston» mahalla-

larida ham «tomorqasidan xazina topayotgan» qo'ligul insonlar juda ko'p. Bu yerda tashkil etilgan atirgulchilik kooperatsiyasi faoliyati kundan-kunga rivojlanib, Quva gullari hatto xorijiy davlatlarga ham eksport qilinyapti. E'tiborlisi, quvaliklar millionlab ko'chat yetishtirish orqali yurtimizda amalga oshirilayotgan «Yashil makon» umummilliy loyihasiga ham munosib hissa qo'shishyapti. Eng muhimi esa, odamlar ishli, bekorchi kishini topib bo'lmaydi. Halol mehnat va mirishkorlik orqasidan hammaning ro'zg'ori but. Tayinki, bekorchi yo'q joyda jinoyat va huquqbuzarliklar ham o'z-o'zidan kamaymoqda.

Profilaktika inspektori, leytenant Shahzodbek G'aniyev ham Quva farzandi. 2023-yilda IIV Akademiya-sini tamomlab, yaxshi niyatlar bilan sohada ish boshlagan. Yosh bo'lishiga qaramay, mahalla faollari bilan hamjihatlikda ish yuritib, aholining ishonchini qozonib boryapti.

Abduvosit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.

Farg'ona viloyati.

PROBATSIIYA XIZMATI

Mayor Sultonmurod Safarovni Jomboy tumanida nafaqat jazoni ijro etish muassasasida jazo muddatini o'tagan va probatsiya xizmati hisobida turganlar, balki hududdagi yirik korxona va tashkilotlar vakillari ham yaxshi taniydi. U probatsiya ro'yxatidagi shaxslar birinchi navbatda jamiyatga moslashishi, bandligini ta'minlash uchun astoydil harakat qiladi.

Ilk xizmat faoliyatini 2012-yilda Urgut tumanini IIB Probatsiya bo'limida boshlagan mayor Sultonmurod Safarov hozir Jomboy tumanida, Probatsiya guruhi katta inspektori lavozimida faoliyat olib bormoqda.

Biz bilan suhbatda katta inspektor probatsiya hisobida turadigan shaxslar bilan ishlash tajribasi bilan o'rtoqlashdi.

– Yil boshidan buyon «Tanho» MCHJ ko'p tarmoqli korxonasi bilan shartnoma tuzib, hisobda turgan 6 kishining bandligini ta'minladik, – deydi u. – Shuningdek, «Global Marokand» MCHJ va «Maroqand meva-sabzavot» fermer xo'jaligi bilan ham shartnoma tuzilgan. Ularning har birida



qariyb o'n kishi mehnat qiladi. «Ishga marhamat» monomarkazida kasb-hunar o'rganish kursini o'taganlar ham bor.

Probatsiya hisobida turadigan shaxslar muqim ish joyiga ega bo'lsa, jinoyat sodir etish ehtimoli sezilarli darajada kamayadi. Jazoni ijro etish

muassasalaridan qaytganlardan ba'zilarining oilasi ular bilan aloqani uzgan bo'ladi, ba'zilar esa ish topishda yoki zarur hujjatlari bo'lmagani tufayli muammolarga duch keladi. Ular hayotga qayta moslashish uchun qanday yo'l tutishni bilishmaydi. Bunda nafaqat yordam ko'rsatish, balki individual yondashuv ham muhim ahamiyatga ega.

Tuman hududida nazorat ostidagi shaxslar tomonidan takroran jinoyat sodir etilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida yakka tartibda profilaktik suhbatlar o'tkazilmoqda. Ularning oilasidagi sharoitlar o'rganilib, aniqlangan muammolar hal etilmoqda. Sayyor sudlarda 18 nafar shaxs jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilindi.

Probatsiya xizmati xodimlari hamda hamkor tashkilot va idoralar tomonidan probatsiya ro'yxatida turgan fuqarolarga ko'rsatilayotgan yordam, olib borilayotgan profilaktik tadbirlarni hammasini boshidan boshlash uchun imkoniyat deyish mumkin.

Zamira BOLTAYEVA,
o'z muxbirimiz.

Samarqand viloyati.

Suratda: mayor Sultonmurod Safarov shogirdi leytenant Akmal Usmonov bilan.



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.facebook.com/postdauz



www.instagram.com/postda_uz

★ Ветераны — наша гордость

ПРИЗНАНИЕ И УВАЖЕНИЕ

На днях в УВД Андижанской области проводили на заслуженный отдых собственного корреспондента по Андижанской области Бориса Владимировича Клеймана.

Борис Владимирович Клейман начинал творческий путь в журналистике в 1980 году фотокорреспондентом Кургантепинской районной газеты. Затем работал в газете Андижанского областного объединения профсоюзов «Адолат». Более десяти лет проработал в газете «Бурчага садоқат» УВД области. В Объединенной редакции МВД Республики Узбекистан работал на протяжении 26 лет.

Герои его материалов — ветераны органов внутренних дел, женщины-сотрудницы, молодые специалисты, ставшие по велению сердца стражами порядка,



образцовые сотрудники различных служб и подразделений органов внутренних дел.

Борис Владимирович не просто освещал события, но и формировал общественное мнение, раскрывал сложные темы. Его статьи всегда отличались глубиной анализа, точностью формулировок, живым интересом к судьбам людей.

Коллеги знают его как человека, преданного журналистике. Репортажи, очерки, интервью — каждая статья, написанная Борисом Клейманом, находила отклик в сердцах читателей. За свою плодотворную работу он снискал уважение аудитории.

Спасибо, Борис Владимирович, за ваш труд, за ваш бесценный опыт, за ваш пример.

Желаем здоровья, вдохновения и новых увлекательных страниц жизни. Двери редакции для Вас всегда открыты!

Коллектив Объединенной редакции МВД Республики Узбекистан.

★ Мы против коррупции!

НЕОТВРАТИМОСТЬ НАКАЗАНИЯ НЕИЗБЕЖНА

Верность долгу и непримиримая борьба с преступностью, неподкупность — основа работы сотрудников органов внутренних дел.



Этот случай произошел в Кунградском районе. Инспектор ДПС первого регионального участка Министерства внутренних дел Республики Каракалпакстан рядовой И. Кутлимурастов, находясь на посту вдоль международной трассы А-380 «Гузар-Бухара-Нукус-Бейнеу», остановил грузовик марки «MAN», следовавший со стороны пограничного поста «Давуд-ота». При проверке документов водитель Э. М. был протестирован на наличие алкоголя в крови — алкотестер подтвердил факт употребления спиртных напитков.

В отношении нарушителя был составлен административный протокол, а транспортное средство отправлено на штрафную стоянку. Однако, пытаясь избежать ответственности, водитель

предложил взятку в размере 300 долларов США старшему инспектору группы безопасности дорожного движения лейтенанту Самендеру Каипову.

Сотрудник разъяснил гражданину, что дача и получение взятки являются уголовно наказуемыми деяниями. Однако нарушитель не внял предупреждениям, после чего инспектор сообщил о произошедшем руководству. В результате к гражданину Э. М. применена соответствующая мера.

Этот случай еще одно подтверждение принципиальной позиции правоохранителей, для которых закон и справедливость — непреложные ценности.

Турсынбай ОТЕМУРАТОВ, рядовой.

Республика Каракалпакстан.

★ Преступление и наказание

ВЫЗВОЛИЛИ ИЗ НЕВОЛИ

Благодаря слаженным действиям сотрудников подразделения уголовного розыска Управления обеспечения безопасности на железнодорожном транспорте Ташкентского региона удалось спасти очередную жертву торговли людьми.

Согласно данным Международной организации труда, на сегодняшний день более 21 миллиона человек являются жертвами рабства или принудительного труда. В мире разработаны и приняты многочисленные международно-правовые документы и внутригосударственные акты, направленные на борьбу с этим злом.

— Наиболее распространенными сферами, в которых используется принудительный труд, являются сельское хозяйство, строительство, промышленность, сфера услуг, — говорит оперуполномоченный отдела уголовного розыска Управления обеспечения безопасности на железнодорожном транспорте Ташкентского региона лейтенант Алпомыс Кайруллаев. — К сожалению, в нашей стране также встречаются лица, стремящиеся нажиться на доверчивых гражданах. Всякими правдами и неправдами они заманивают людей в свои сети.

В их числе оказался и 35-летний житель Аккурганского района, доверившийся соседке в трудоустройстве за рубежом. Более двух месяцев его мать не получала от сына вестей. Пожилая женщина сильно переживала и вынуждена была обратиться за помощью в правоохранительные органы.



Сотрудники отдела уголовного розыска управления провели рейды на станции, где в последний раз видели сына потерпевшей, и задержали пронырливую соседку с поличным. Она пыталась незаконно переправить через границу очередную жертву — 25-летнего уроженца города Чирчика в одном из пассажирских вагонов состава, направляющегося в Москву. Таким образом оперативникам удалось спасти очередную потенциальную жертву и установить местонахождение сына пенсионерки. Вскоре мужчина вернулся домой. Вместе с ним вернулись еще 5 человек, которых заставляли бесплатно заниматься сбором сельскохозяйственной продукции.

Сирождидин ДЖУРАБАЕВ.



MARDLAR QO'RIQLAYDI VATANNI

OLIV MAQSAD

– Ona Vatanga xizmat qilish – sharaf. Otam Murodil aka uzoq yillar ichki ishlar organlarining yo'l harakati xavfsizligi tizimida faoliyat yuritgan, men ham ularning kasbini davom ettiryapman, – deydi oddiy askar Behruzbek Umarov.

Asli Andijon viloyatining Ulug'nor tumanida tug'ilgan lavhamiz qahramonining bolalik yillari otasining kasbi tufayli Angren shahrida o'tdi. U yoshligidan sportning qo'l jangi turi bilan shug'ullanadi.

Shahar miqyosida o'tkazilgan musobaqalarda bir necha marotaba sovrinli o'rinlarni ham qo'lga kiritdi. Bunday muvaffaqiyatlarga erishishida murabbiyi Qahramon Sattorovning ham xizmatlari beqiyos bo'ldi.

Tinimsiz mashqlar o'z mevasini berib, Behruzbek 2018-yili poytaxtimizda o'tkazilgan qo'l jangi bo'yicha xalqaro turnirda 1-o'rinni egalladi. 2021-yilda esa respublika chempionatida o'z vazn toifasida mutlaq g'olib bo'ldi.

Behruzbek Qorovul qo'shinlaridagi xizmat faoliyatini Qashqadaryo viloyatidagi 7533-harbiy qism 3-toifali nazoratchisi lavozimida boshlab, us-tozi, serjant Nodir Musayevdan kasb sirlarini puxta o'rgandi.

Ayni paytda u harbiy qism jismoniy tayyorgarlik va sport boshlig'i, sambo va jangovar sambo bo'yicha xalqaro toifadagi sport ustasi, kapitan Sardor Shovriqov murabbiyligida qo'shinlar miqyosidagi musobaqalarda sovrindorlar safidan joy olib kelmoqda.

Jumladan, 2023-yilning avgust oyida «Qo'mondon kubogi» musobaqasida sportning boks turi bo'yicha faxrli 2-o'rinni egallagan bo'lsa, o'tgan yilning oktabr oyida esa qo'l jangi bahslarida faxrli 1-o'rinni qo'lga kiritdi.

– Maqsadim xalqaro sport musobaqalarida ham g'oliblikni qo'lga kiritib, yurtimiz bayrog'ini jahon arenalarida baland ko'tarishdir, – deydi B. Umarov. – Buning uchun har qanday qiyinchilik va mashaqqatlarni yengib o'tishga tayyorman.

Kelajakda ofitser bo'lishni niyat qilgan oddiy askar Behruzbek Umarov ayni kezlarda oliy o'quv yurtining 2-bosqichida sirtidan tahsil olmoqda.

– Harbiy qismda sport va jismoniy mashg'ulotlarni belgilangan tartibda namunali tashkil etilishi ona yurtimiz himoyachilarining kasbiy, jangovar va jismoniy tayyorgarligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi, – deydi kapitan Sardor Shovriqov. – Mashg'ulotlarda doimo faol bo'lgan Behruzbek kelgusida albatta o'z maqsadlariga erishadi, men bunga ishonaman.

Sodiq RAHIMOV,
o'z muxbirimiz.

Qashqadaryo viloyati.



INSON QADRI ULUG'

INTILGANGA BAXT
YO'LLARI OCHILADI

Shirin shahar IIB Tashkiliy bo'linmasi murojaatlar bilan ishlash guruhi katta inspektori, katta leytenant Anvar Norqulov xizmatni «Bunyodkor» mahallasi profilaktika inspektori vazifasida boshlagan. 2023-yildan hozirgi lavozimida.

– Idoramizga turli mazmundagi murojaatlar kelib tushadi. Yaqinda Mirzo Ulug'bek nomidagi mahallada yashovchi kasb-hunari yo'q, o'zi mustaqil harakatlana olmaydigan nogiron ayolning arizasini ko'rib chiqdik. U qo'llari bilan mehnat qila oladi. Mahalla raisi bilan maslahatlashib, unga subsidiya asosida tikuv mashinasi olib berdik. Tikuvchi ayolga iltimos qilib, unga tikuv sirlarini o'rgatdik. Intilganga baxt yo'llari ochilar ekan. Kutilmaganda shaharda bir emas, ikkita megaloyiha ishga tushib, ishchi-

Anvarjon faqat idorada o'tirib ishlaymaydi. Ba'zan murojaatlar mazmunidan kelib chiqib, arizachilarning uylariga ham borib turadi. Yaqinda shunday maqsadda «Amir Temur» mahallasini oralab ketayotgan edi. Bir mahal 9-sonli ko'p qavatli uy xonadonlaridan birining derazasidan tutun chiqayotganni ko'rib qoldi. Darhol yong'in xavfsizligi xizmatiga qo'ng'iroq qilib, uy tomon yugurdi. Bolalar yig'isini eshitgach, o'ylanib o'tirmasdan eshikni buzib, ichkariga kirdi. O'z hayotini xavf ostiga qo'yib bo'lsa-da, ichkarida

qolib ketgan uch nafar 4–5 yoshli bolalarning ikki nafarini tashqariga olib chiqdi. Bu orada yong'in xavfsizligi xizmati xodimlari ham yetib keldi. Anvar Norqulov ularga ichkaridagi yana bir bolani qutqarish va yong'inni o'chirishga ko'maklashdi.

O'tgan haftada bu haqda ijtimoiy tarmoqlarda tezkor xabarlar tarqaldi. Anvarjonning bu qahramonligi

uchun uni duo qilayotganlar, boshqa xayrli ishlaridan minnatdor bo'lib, unga tahsin aytayotganlar oz emas.

Abdurahmon MUSTAFOQULOV,
o'z muxbirimiz.

Sirdaryo viloyati.



lar uchun maxsus kiyimlarga ehtiyoj paydo bo'ldi. Shahardagi tikuvchilik sexlari tugul, kasanachi tikuvchilarga ham buyurtma berildi. Hozirda opaxonning ham ishlari yurishib, xonadoniga fayz, baraka kirdi, – deydi Anvar Norqulov.

MAHALLA TINCH – YURT TINCH

«QIZIL» HUDUDLARDA PROFILAKTIKA

Muzrabot tumanida 37 ta mahalla mavjud bo'lib, ularning 12 tasi «yashil», 20 tasi «sariq» va qolgan 5 tasi «qizil» toifaga kiritilgan. Endilikda tumanda jinoyatchilikni kamaytirish uchun «sariq» toifadagi mahallalarni «yashil»ga aylantirish choralarini ko'rish bilan birga, «qizil» toifadagi hududlarda ham profilaktik tadbirlar olib borilayotir.

Jumladan, tumandagi «Do'stlik», «Olmazor», «Duo-ba», «Shaffof» va «Muzrabot darvoza» mahallalari «qizil» toifaga kiritilgan. Ushbu hududlarda kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish va jinoyatchilikning barvaqt oldini olish uchun hamkorlikdagi mutasaddi xodimlar tun-u kun xizmat qilishmoqda.

– Mahallalarda ijtimoiy profilaktikani tizimli yo'lga qo'yishga alohida e'tibor qaratilayapti, – deydi tuman IIB

JTSG katta inspektori, kapitan Qahramon Mo'minov. – Misol uchun, tumanning «Shaffof» mahallasida tungi o'rganishlar olib borildi. Mahalla hududidagi ko'chalarni yoritish chiroqlari bilan ta'minlash, aholi turarjoylari va savdo nuqtalariga kameralar o'rnatish choralari ko'rildi. Aniqlangan kamchiliklar bo'yicha «mahalla yettilligi»ga vazifalar yuklatildi. Mahallada «Namunali xavfsiz ko'cha» va «Namunali xavfsiz yo'lak»lar tashkil etilmoqda.



Bundan tashqari, «Shaffof» mahallasi hududiga shaxsni tanib oluvchi va avtotransport vositalarining raqamini identifikatsiya qiluvchi 4 ta maxsus kamera o'rnatildi. Aholi yashash xonadonlariga esa favqulodda holatda xabar berish

uchun mo'ljallangan «SOS» tugmalari o'rnatilmoqda.

«Qizil» toifadagi har bir mahallada huquqbuzarlik va jinoyat sodir etishga moyilligi bor yoki bundan jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan shaxslar bilan individual tarzda suhbat-

lar olib borilayotir. Jarayonda fuqarolarning muammolari aniqlanib, ular bo'yicha mahalla faollariga profilaktika inspektorlari tomonidan 47 ta xulosa berildi. Xususan, nizoli oilalarni yarashtirish, ishsizlarni ish bilan ta'minlash, o'quv kurslariga jalb qilish choralari ko'rilyapti. Shuningdek, profilaktika inspektorlari bilan hamkorlikda jinoyat va huquqbuzarliklar sodir etish va jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan shaxslarning ijtimoiy-maishiy muammolari ham joylarda o'rganilib, bar-taraf etilmoqda.

Feruza RAHMONQULOVA,
o'z muxbirimiz.

Surxondaryo viloyati.



В службах и подразделениях

СПЕЦПРИЕМНИК: ВЗГЛЯД ИЗНУТРИ

В 1:30 ночи в районе махалли Тошлок инспектор профилактики ОПП СОБ ОВД города Джизака лейтенант Абдулла Абияров заметил оставленный без присмотра автомобиль «Нексия» и попытался привлечь внимание владельца, нажав на клаксон машины.

Поскольку никто не отозвался, инспектор приступил к эвакуации автомобиля на штрафную стоянку. В этот момент появился владелец автомобиля, житель махалли Сайилжой О. К., и стал выражать недовольство и оскорблять инспектора.

Лейтенант составил административный

протокол в отношении гражданина, который находился в состоянии алкогольного опьянения. На суде О. К. объяснил свои действия тем, что был пьян и не осознавал происходящего. Суд, тщательно изучив обстоятельства дела, вынес решение о назначении нарушителю штрафа



в размере 1 миллион 875 тысяч сумов и административного ареста сроком на 5 суток.

О. К. был доставлен в специальный приемник ОПП СОБ УВД области, предназначенный для содержания лиц, подвергнутых административному аресту. Согласно уста-

новленным правилам, его подвергли медицинскому осмотру, одежду дезинфицировали. Документы и личные вещи передали на временное хранение. Здесь О. К. провел 5 дней, соблюдая все предписания.

Учреждение рассчитано на 60 мест.

Задержанные имеют возможность работать. Для этого заключены договоры с тремя предприятиями, специализирующимися на производстве строительных материалов.

В целях предотвращения повторных правонарушений регулярно проводятся профилактические мероприятия. Для эффективной организации охраны установлено 25 камер видеонаблюдения. В 2024 году в данном учреждении наказание отбыли 1 744 человека, за прошедший период текущего года – 124 гражданина.

**Алижон
АБДУСАТТОРОВ,**
соб. корр.

Джизакская область.

История одного преступления

СПАСАЯСЬ ОТ ВОЗМЕЗДИЯ

Долгие годы проработавший в службе безопасности дорожного движения полковник в отставке Равшан Рахмонов в наших нечастых беседах всегда делится историями, достойными для публикации. Обычно он рассказывает о раскрытых преступлениях, связанных с дорожно-транспортными происшествиями. Сегодня он поведал об одном из них.

– Это было в конце сентября 1993 года. Тогда я занимал должность инспектора административной практики в отделе ГАИ Пешкунского РОВД. Поздним вечером раздался телефонный звонок. Дежурный районного ОВД сообщил, что совершено ДТП. До прибытия «скорой» пострадавший скончался, – рассказывает Р. Рахмонов. – Добравшись до места происшествия, поговорил со свидетелем Н. Р. Тот сообщил, что примерно в 23:00 возвращался с поминок дяди и заметил у обочины дороги человека, обливаемого кровью, в полубессознательном состоянии. Н. Р. вызвал «скорую помощь» и сообщил о случившемся в правоохранительные органы.

Показания свидетеля не дали никаких зацепок. Вместе с оперативными сотрудниками начали предварительное расследование. На месте происшествия были обнаружены осколки стекла от передних фар легкового автомобиля. Эти улики свидетельствовали о том, что пострадавший стал жертвой дорожно-транспортного



происшествия, а водитель, совершивший наезд, скрылся с места происшествия.

Начало светлеть. К поискам были задействованы заместители местного РОВД, сотрудники уголовного розыска, участковые ин-

спекторы. Тщательно проверили каждый сантиметр прилегающей территории. В процессе осмотра обнаружил кусок металла с желтой краской и пришел к выводу, что следует искать владельца автомобиля желтого цвета.

После этого осмотрели все дома в округе, извинившись перед хозяевами за внезапный визит. Отдельно поговорил с владельцами легковых автомобилей. Личность погибшего также оставалась неустановленной. Кто же он?

Среди вещей пострадавшего был найден рецепт врача. Это дало возможность установить личность умершего. Следовательно незамедлительно отправился в сельский медицинский пункт и встретился с врачом. Жертвой ДТП оказался 33-летний Т. С., проживавший в селе Гулхалон.

Благодаря тщательному расследованию удалось установить личность водителя. Им оказался автомеханик Ю. О.

Как выяснилось, житель колхоза «Туркистон» Х. К. доверил мастеру управление своим автомобилем марки «Жигули». Когда они возвращались из гостей, произошло дорожно-транспортное происшествие. Чтобы избежать наказания, они бросили умирать жертву наезда. Совесть их несколько не мучила. Обвиняемые были привлечены к ответственности.

Мирзокул АХАДОВ,
соб. корр.

Бухарская область.



ҚАЛБИ ДАРЁ УСТОЗЛАР

«Postda-На посту» газетаси ўтган асрнинг етмишинчи йилларида айрим сабабларга кўра ўз фаолиятини тўхтатган эди. Айнан шу йилларда тахририятда ижод қилган Ҳамидулла Абдуллаев, Революция Ҳасанова ўша кунларни маънос бир хотиралар билан эслашар эди.

Мустақиллик йилларида газетамиз қайта ташкил этилган дастлабки ойларида, ҳар икки ижодкор тахририят билан яқин алоқада бўлдилар. Ҳамидулла ака бадий мақолалардан ташқари бошқотирмалар тузишда ҳам моҳир эди. 1991–1995 йилларда унинг бир неча ўнлаб кроссворд, чайнворд ва бошқотирмалари газета саҳифаларидан ўрин олган. Устоз тахририятга тез-тез келиб турар, ўз хотиралари билан бир қаторда зарур маслаҳатларини ҳам бериб турардилар.

Революция Ҳасанова эса кадрлар бўйича инспектор лавозимида ишга қабул

қилиниб, ўзига ва ходимларга нисбатан талаби анча юқори, интизомни биринчи ўринга қўядиган ходим сифатида тахририятга қатор иқтидорли ижодкорлар жамланишига катта ҳисса қўшди.

Жамоа Р. Ҳасанова ва Ҳ. Абдуллаевга «қалби дарё устозлар» дея алоҳида ҳурмат кўрсатишарди. Бугун устозларимиз ораминда бўлмаса-да, хотиралари ҳамиша қалбимизда!

Суратда: Ҳамидулла Абдуллаев ва Революция Ҳасанова (марказда) тахририят ходимлари билан.



MADANIY HORDIQ

SEHRLI OHANGLARDA OLAM MUJASSAM

IIV Alohida namunali-ko'rgazmali orkestri jamoasi har yili ichki ishlar organlari shaxsiy tarkibi hamda ularning oila a'zolari va poytaxtimiz aholisiga to'liq jonli ijroda, hisobot konsert dasturini namoyish etib kelmoqda. Ushbu an'ana orkestr tashkil qilingan 1993-yildan beri davom etmoqda.



Yaqinda vazirlik Madaniyat saro-yida mazkur jamoa ishtirokida «Xalq manfaatlariga xizmat qilamiz!» deb nomlangan tantanali marosim bo'lib o'tdi.

Bu yilgi konsert orkestr badiiy rahbari, podpolkovnik Muqimjon Mahmudovning 50 yoshga to'lishi arafasida bo'lgani sababli, Ichki ishlar vaziri, general-leytenant Po'lat Bobojonovning tabrigi va vazirlikning esdalik sovg'alari yubilyarga topshirildi.

Kechaning asosiy qismida o'zining boy va takrorlanmas musiqiy dasturlari bilan allaqachon xalqimiz qalbidan chuqur joy olgan orkestr jamoasining professional musiqachi va xonandalari jo'rligida «Libertango», «Parizodim», «Bolivar», «Olovli yo'llar», «Bandaman», «Yomg'ir yog'di» kabi o'n beshdan ortiq jonli musiqa, milliy qo'shiqlar va xorijiy kompozitsiyalar yuqori saviyada ijro qilinib, tomoshabinlar quvonchiga sabab bo'ldi.



– San'atga mehrim baland, – deydi poytaxtimizning Mirobod tumanidagi 110-sonli ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi o'qituvchisi Feruzaxon Alimova. – Orkestr jamoasining ijodini juda hurmat qilaman. Har yili oila a'zolarimiz bilan konsert dasturiga kelib, madaniy hordiq chiqaramiz.

Ta'kidlash joizki, orkestr har yili na-faqat san'at oliygohlari, musiqa mak-tablarida, balki bayramlar munosabati bilan xiyobon va sayilgohlarda ham konsert dasturlarini namoyish etib, musiqa ixlosmandlarining olqishiga sazovor bo'lib kelmoqda.

– IIV Alohida namunali-ko'rgazmali orkestrining rang-barang repertu-ari doim qiziqishimga sabab bo'lib kelgan, – deydi O'zbekiston davlat konservatoriyasi kafedra mudiri Javlon Rajabiy. – Qizg'in ijod bilan mashg'ul bu jamoa o'zbek va jahon klassik musiqiy asarlarini o'z repertuarida

kuylarini mahorat bilan qayta ishlab, orkestr ijrosida o'zgacha ruhda taqdim eta olishidir. Bunday yo'nalishdagi kompozitsiyalar doimo muxlislar e'ti-borini qozonib kelgan.

– IIV Alohida namunali-ko'rgazmali orkestri faoliyatining ilk kunlaridanoq qizg'in ijod bilan shug'ullanib, o'tgan 32 yil mobaynida ichki ishlar organlari xodimlari va harbiy xizmatchilarning



mashaqqatli, shu bilan birga, sharaflil kasbini madh etuvchi 200 ga yaqin san'at asarlari yaratib, ularning so-haga bo'lgan mehr-muhabbat va sadoqatining yanada oshishida muhim ahamiyat kasb etdi, – deydi badiiy rahbar, podpolkovnik Muqimjon Mah-mudov. – Bu kabi muvaffaqiyatlarga erishishimizda, orkestrning haqiqiy jonkuyarlari marhum Grigor Terzyan, iste'fodagi podpolkovniklar Ulug'bek Mamasoliyev, Lyuman Feyzullayev hamda iste'fodagi serjantlar Baxtiyor Isabekov va Ibragim Bekirov kabi us-tozlarimizning xizmatlari beqiyosdir. Shu sababli ham biz, qalbi qaynoq, mehri daryo bu insonlar bilan doimo faxrlanib kelimiz.

Mixli SAFAROV,
o'z muxbirimiz.

SOHA FIDOYILARI

MASHAQQATLAR MEVASI

O'z kasbiga mehr qo'ygan, fidoyi insonlar hech qachon tanlagan sohasida duch kelgan qiyinchiliklardan nolimaydi. Ichki ishlar organlarida 23 yildan buyon xizmat qilib kelayotgan, baxti-saodatini, barakasini shu sharaflı vazifasidan deb bilguvchi Navoiy viloyati IIB JXX YHXB YPX inspektori, kichik serjant Zafar Muhammadov ilk faoliyatini kinologlikdan boshlagan.

... Qish kunlarining birida kechasi bilan yoqqan qor shahar yo'llarini qopladi. Avtomobillarning harakatlanishi biroz qiyinlashdi. Sirpanchiq yo'lda ba'zi mashinalar muvozanatini yo'qotardi. Tirbandlik boshlandi. Qatnovni vaziyatga qarab boshqarish zarurati yuzaga keldi.

Kichik serjant Zafar Muhammadov chorrahaning bir yo'nalishida mashinalarni

lik bilan harakat qilish, asabiy holatda mashina boshqarishning oqibati xunuk bo'lishini tushuntirgach, hujjatlarini so'radi. Planshetga ma'lumotlarni kiritgach bildiki, haydovchiga nisbatan jinoyat ishi ochilgan bo'lib, u qidiruvda ekan. Inspektor yigitning nega shoshayotganini va hayajonlanib so'zini yo'qotganini tushundi. Darhol navbatchilik qismiga

Hayotda hazilkash, samimiy bu yigit xizmatni o'tash chog'ida jiddiy tortadi. Har bir ishni rejali bajaradi. Faoliyati davomida ko'plab shogirdlar tarbiyalab yetishtirdi. Yosh xodimlarga doim halol va mehnatsevar, burchiga sadoqatli bo'lishlari lozimligini uqtiradi. Uning barchaga o'rnak bo'ladigan jihatlari ko'p.

Kichik serjant Zafar Muhammadovning faoliyati davo-



to'liq harakatlantirdi. Ba'zi avtotransportlarning g'ildiraklari joyida aylanib sirpana boshladi. Xodim ularga ko'maklashishga ham ulgurardi. Xullas, maxsus mashina kelib yo'llar tozalangunga qadar harakatni tartibga solib turdi.

Odatdagi xizmat kunlarining birida tezlikni me'yoridan oshirib, piyodalarga yo'l bermagan «Cobalt» rusumli avtomashinasiga to'xtash ishorasini berdi. Haydovchi istar istamas to'xtab, shoshayotganini aytdi. Lavhamiz qahramoni shoshmashoshar-

qo'ng'iroq qildi. Shu tariqa qonunbuzar qo'lga olindi.

– Jamiyat tartib-intizom va qonunlar bilan xavfsiz. Yo'l harakati ishtirokchisi qoidalariga amal qilib, boshqa harakat ishtirokchilarini hurmat qilish orqali, o'zini ham, o'zgalarni ham asragan bo'ladi. Bizning vazifamiz birinchi galda qoidabuzarni jarimaga tortish emas, qoida barchaga barobarligini ta'minlash. Shu maqsadda targ'ibot ishlari olib boramiz. Toki yo'lga chiqqan kishi eson-omon o'z manziliga yetsin, – deydi u.

mida uchragan qiyinchiliklarni sabr-toqat, metin iroda bilan yengib o'tdi. Uning fidoyiligi, yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash borasida chekkan mashaqqatlari besamar ketmadi. Avvalambor, jamoada obro' e'tibor qozondi. Qahramonimizning o'g'li Diyorbek Muhammadov Rossiya Federatsiyasi IIV Akademiyasida ta'lim olmoqda. Maqsadi – otasining kasbini davom ettirish.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.

YOSHLAR – KELAJAK BUNYODKORI



IIV Akademiyasini tamomlagan leytenant Shohruxmirzo Komiljonov 2023-yildan buyon Andijon shahridagi «Birlashgan» MFYning profilaktika inspektori lavozimida xizmat faoliyatini olib bormoqda. Unga birlashtirilgan mahalla yashil toifada bo'lib, 3100 nafardan ortiq aholi istiqomat qiladi. Joriy yilning shu davriga ko'ra, birorta jinoyat yoki boshqa turli salbiy holatlar kuzatilmagan.

– Hududimizdagi mahalliy aholi asosan dehqonchilik, hunarmandchilik va tikuvchilik bilan shug'ullanishadi. Yil boshidan buyon hali voyaga yetmagan 6 nafar maktab bitiruvchilari bilan suhbatlashib, ularni ishga joylashtirdik. Maqsad yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etgan holda ular o'rtasida jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan, – deydi leytenant Sh. Komiljonov.

Sh. Komiljonov sportga ham alohida mehr qo'ygan bo'lib, qo'l jangi bilan 6 yildan buyon professional tarzda shug'ullanib keladi. O'tgan yili Andijon viloyatida o'tkazilgan katta musobaqada faxrli birinchi o'ringa sazovor bo'lgan. Profilaktika inspektorining oilasi ham namunali oilalar sirasiga kiradi. Otasi Qodirjon aka tadbirkorlik bilan shug'ullansa, onasi

SURXONDARYO VILOYATI

MUTAXASSIS-SHIFOKORLAR ISHTIROKIDA



Muzrabot tumani «Guliston» mahallasidagi 48-sonli oilaviy poliklinikada viloyat IIB Tibbiyot bo'limi poliklinikasi mutaxassis-shifokorlari ishtirokida chuqurlashtirilgan bepul tibbiy ko'rik tashkil etildi.

Unda mahalla fuqarolarining 65 nafari UTT tekshiruvidan, 70 nafari EKG tekshiruvidan o'tkazildi. Bundan tashqari, 75 nafaridan umumiy qon tahlillari olindi. Barcha tahlillar va tekshiruv natijalari asosida aniqlangan kasalliklar bo'yicha tegishli mutaxassislarga yo'naltirildi. Qolaversa nevrolog, psixiatr, otorinolaringolog, oftalmolog, jarroh, ginekolog, pediatr, onkolog, kardiolog

va terapevt ko'rigidan jami 210 nafar fuqaro o'tkazildi. Kasallik aniqlangan 42 nafar bemor viloyat hamda tuman miqyosidagi shifoxonalarda, 101 nafari ambulator tartibda davolanishlari lozimligi ta'kidlanib, ularga amaliy yordam ko'rsatildi. 67 nafar fuqaroga shikoyatlari asosida tibbiy maslahatlar berildi.

Chuqurlashtirilgan bepul tibbiy ko'rik davomida mahallada yotib qolgan, o'zgalar yordamiga muhtoj bemorlarning yashash xonadonlariga borilib, ular mutaxassis shifokorlar tomonidan tibbiy tekshiruvdan o'tkazildi.

Feruza RAHMONQULOVA,
o'z muxbirimiz.



IZLANUVCHAN INSPEKTOR

Malikaxon Abduvoitovanning kasbi shifokor. Oilada to'rt o'g'ilning uchinchi bo'lgan Shohruxmirzoning katta akasi Boburmirzo Andijon viloyati IIB YHXXB saford xodimi.

Doimiy izlanishda bo'lgan leytenant hozirda doktorantura bosqichida O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetining mustaqil izlanuvchisi hamdir. Bundan tashqari, «Zakovat» bellashuvlari va ko'pgina ko'rik-tanlovlarda muntazam ravishda ishtirok etib keladi.

Abror POYONOV,
o'z muxbirimiz.

Andijon viloyati.



БУЮК АЖДОДЛАРИМИЗ

ХАЛҚ ДОСТОНЛАРИНИНГ МОҲИР КУЙЧИСИ

Ўзбек халқ достончилиги, бахшилиқ аънаналари ҳақида гап кетганда, халқ оғзаки ижодининг етук намоёндаларидан бири Фозил Йўлдош ўғли алоҳида тилга олинади. 1872 йилда Жиззах вилояти Бахмал тумани (ҳозирда Самарқанд вилоятининг Булунғур тумани)даги Лойқа қишлоғида туғилган бахши Булунғур достончилик мактабининг энг йирик ва ёрқин вакили бўлган.



Етимликда ўсган бўлажак бахши болалигидан дўмбира чертиб, термалар айтади. Ана шу иқтидори туфайли Булунғур достончилик мактабининг таниқли вакилларида бири – Йўлдош Мулла Мурод ўғлининг назарига тушади. Йигирма ёшларида устози Йўлдош шоирдан сабоқ олади. Ундан бахшичиликни мукаммал ўрганади.

Фозил Йўлдош ўғли Амин шоир, Чини шоир, Товбузар шоир, Қурбонбек шоир, Султонмурод шоир, Йўлдош булбул, Йўлдош шоир каби Булунғур достончилик мактабининг пешқадам достончиларидан адабий аънанани қабул қилиб олган, уни пухта эгаллаб, бадиҳагўйлик билан бойитган ва ўзбек достончилигини янги босқичга кўтарган. У 40 дан ортиқ халқ достонларини ёд билган ва юсак маҳорат билан куйлаган. Фольклоршунос олимлар, шоир ва ёзувчилар ундан «Алпомиш», «Авазхон», «Баҳром ва Гуландом», «Ёдгор», «Кунларим», «Муродхон», «Гўрўғли», «Зулфизар билан Аваз-

хон», «Балогардон», «Очилдов», «Жаҳонгир», «Зевархон», «Лайли ва Мажнун», «Ошиқ Фариб» каби 30 дан ортиқ достонларни ёзиб олишган.

Бахши қаҳрамонлик, тарихий достонлар ҳамда китобий достонларнинг энг яхши намуналарини куйлаб келган. Айниқса, «Алпомиш» достони унинг ижодида алоҳида ўрин тутди. Ўзбек халқ достончиларидан ёзиб олинган 40 га яқин достонлар орасида Фозил Йўлдош ўғли варианти энг мукаммал ҳисобланади. Унда шоирнинг юсак достончилик маҳорати тўла намоён бўлган.

Давлатимиз раҳбари ташаббусига кўра, 2022 йили мамлакатимиз бўйлаб Фозил Йўлдош ўғли таваллудининг 150 йиллиги кенг нишонланди. Шу муносабат билан у туғилиб ўсган Булунғур тумани марказидаги хиёбонда ободонлаштириш ва кўкаламзорлаштириш ишлари амалга оширилиб, бу ерда ўрнатилган бахши ҳайкали ортидаги иншоот барельеф жанридаги ижод намунаси билан безатилди.



Айни пайтда Фозил Йўлдош номи билан аталувчи маҳалладаги эски музей ўрнида замонавий уй-музей ва кўркем хиёбон ҳам барпо этилган.

Ўзбек халқ достонларининг моҳир куйчиси Фозил Йўлдош ўғли номи билан боғлиқ бу жойлар бугун нафақат булунғурликлар, балки бахшилиқ аънаналарига қизиқувчилар, ёшлар учун чинакам маърифат масканига айланган.

Адолат ФАЙЗИЕВА тайёрлади.

YENGIL ATLETIKA

EPCHILLAR BAHSI

Ichki ishlar organlari xodimlari o'rtasida sportni ommalash-tirishga, ularning jismoniy tayyorgarligini oshirish maqsadida IIV huzuridagi Jazoni ijro etish departamenti Birinchi mintaqaviy muvofiqlashtirish markazi tasarrufidagi muassasalar shaxsiy tarkibi o'rtasida yengil atletika bo'yicha musobaqa o'tkazildi.



Toshkent shahri Mirobod tumanida joylashgan 1-sonli sport majmuasida bo'lib o'tgan musobaqada 10 ta jamoalar qatnashib, bahslar natijasiga ko'ra, 3-o'rinni 44-sonli manzil koloniyasi terma jamoasi, 2-o'rinni 21-sonli jazoni ijro etish koloniyasi jamoasi vakillari egalladi. Faxrli 1-o'rin esa 22-sonli jazoni ijro etish koloniyasi xodimlariga nasib etdi.

To'rtinchi mintaqaviy muvofiqlashtirish markazi tasarrufidagi koloniyalar o'rtasidagi

musobaqalar ham murosasiz ruhda kechdi. Yakuniy natijalarga ko'ra, 2-sonli jazoni ijro etish koloniyasining terma jamoasi 3-o'rinni, 5-sonli tergov hibs-xonasi terma jamoasi 2-o'rinni, 3-sonli jazoni ijro etish koloniyasi terma jamoasi esa faxrli 1-o'rinni qo'lga kiritdi.

G'olib jamoalar Mintaqaviy muvofiqlashtirish markazi boshlig'ining kubogi, diplom hamda pul mukofoti bilan taqdirlandi.

Shahrizod SHOKIROV, kapitan.

HIKMAT



Tenglik hukm surgan joyda sotqin,
aldamchi ehtiroslar, g'am-g'ussa
bo'lmaydi.

Abu Rayhon BERUNIY.



HIKMAT



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.facebook.com/postdauz



www.instagram.com/postda_uz

САЛОМАТЛИК САБОҚЛАРИ

ГОРМОНЛАРНИ
БОШҚАРАМИЗ

Организмимизда фаол ҳаракатда бўлаётган гормонлар фаолиятига ўз таъсиримизни ўтказа олишимиз мумкин. Қандай дейсизми?



Фаол ҳаракатда бўлинг.

Чарчоқ ва оғриқ билан курашишда жисмоний машқларга тенг келадигани йўқ. Чунки тана фаоллашгани сари организм эндорфин – бахт гормони, адреналин, серотонин ва дофамин каби гормонларни ишлаб чиқара бошлайди.

Қалампир билан дўст тутининг.

Агар таомингизга қалампир қўшиб тановул қилсангиз, тахминан 20 дақиқадан кейин кайфиятингизда кўтаринкилик ҳис қила бошлайсиз. Негаки, организм эндорфин моддасини фаолроқ ишлаб чиқаради. Шундай экан, хурсанд бўлишни истасангиз, таъбингиз хушласа, аччиқ-аччиқ таом тановул қилинг.

Яқинларингизни бағрингизга босинг.

Қучоқлаш чотида танамиз окситоцин – меҳр-муҳаббат гормони оғушида бўлади. Шунинг учун яқинларингизни бағрингизга босганингизда кучли ҳимояни, ишончни ҳис этасиз. Шунингдек, бу гормон стрессдан ҳам халос этади.

Шоколад енг.

Шоколад мияда бахт гормонини ишлаб чиқаришни кўпчилик яхши билади.

Қуёш нурлари ғамларингизни аритади.

Булутли кунда тунд кайфиятда юришимиз бор гап. Буни қарангки, бобоқуёш етарлича нур сочмаслиги туфайли бахт гормонлари камроқ ишлаб чиқарилаётган. Шунинг учун мутахассислар тушқун кайфиятда бўлган кишига очик ҳавода, офтоб нуридан баҳраманд бўлиб сайр қилишни тавсия этади.

Совға улашинг.

Бунинг учун байрам саналарини кутиш шарт эмас. Яқинларига тез-тез совға-салом улашадиган инсонлар ўзларини бошқалардан кўра бахтлироқ ҳис этишади.

Санъат шайдосига айланинг.

Инсон нигоҳи гўзалликка, айниқса, санъат асарига тушганда, организм қониқиш гормони – дофамин ишлаб чиқаришни фаоллаштиради. Шундай экан, турли кўргазмаларга боришга одатланинг. Вақтингиз бўлмаса, иш столингизни, деворларни ёрқин суратлар билан безатинг.

Адолат ФАЙЗИЕВА тайёрлади.

Коллаген миқдорини
табiiй йўл билан ошириш

Инсон саломатлиги, бўғинлар ва қон томирларининг соғлом бўлиши ҳамда тери ҳолати кўп жиҳатдан танадаги коллаген даражасига боғлиқ. Коллагенга бой маҳсулотлар истеъмол қилинганда, унинг организмга сўрилиш даражаси номаълум ва илмий жиҳатдан исботланмаган. Аммо баъзи маҳсулотлар тананинг ўзи томонидан коллаген ишлаб чиқарилишини рағбатлантириши ҳақида далиллар мавжуд.

Коллагеннинг ўзи нима?

У организмда энг кўп тарқалган оксил бўлиб, пай, тоғай, ёш суяк тўқималари, ёғ массаси ва бошқа кўплаб жойларда мавжуд. Коллаген танадаги турли қисмларнинг ўзаро бир-бири билан бириктиришга ёрдам беради ва суяк тузилиши мустаҳкамлиги учун муҳим аҳамиятга эга. Терида коллаген миқдори 70 фоизга етади – у терининг силлиқлиги, таранглиги ва эгилувчанлигини таъминлайди.

роҳатларнинг тез битиши ва зўраймаслиги учун ишлатилган. Кесик ва куйишларни даволашдаги самараси шундан иборатки, алоэ гели зарарланган жойга қўйилганда ёки ҳатто оғиз орқали қабул қилинганда коллаген ишлаб чиқаришни оширади.

С витаминига бой маҳсулотлар гиалурон кислотаси синтези учун муҳим аҳамиятга эга. Бу кислота эса тўқима ва ҳужайраларнинг тикланиш вақтини тезлаштиради,

қолишга ёрдам беради. Шунингдек, у коллаген миқдори ўсишини рағбатлантиради. Женьшенни қабул қилганда ёки ундан тайёрланган чойни ичганда қон оқимига тушадиган антиоксидантлар соғлом ҳужайраларни ҳимоя қилиб, терининг узок муддат ёш ва соғлом кўринишига хизмат қилади.


Кашнич таркибида коллаген ишлаб чиқаришни рағбатлантирувчи С витамини ҳамда тери қаришига қарши кучли омил деб тан олинган линолен кислотаси мавжуд. Ушбу кислота соғлом тери ҳужайраларини нобуд қиладиган қондаги эркин радикалларга қарши курашувчи антиоксидантларни ўз ичига олади.

Шунингдек, суяқдан тайёрланган шўрва, балиқ, товуқ гўшти, тухум оқи, цитрус мевалар, саримсоқ, яшил баргли сабзавотлар ва дуккакли маҳсулотлар ҳам организмда коллаген ишлаб чиқарилишини рағбатлантиради.

Соғлом тери организм ўзини қандай ҳис қилаётганини намоён этувчи табiiй кўрсаткичдир. Бугунги кунда қариш белгиларини бутунлай бекор қилиш усуллари мавжуд эмас. Терини ёш ўтганда тиклашга урингандан кўра уни дастлабки соғлом пайтида ҳимоялаш ва асраш мақсадга мувофиқдир. Организмда коллаген даражасини табiiй равишда ошириш нафақат ташқи кўринишни, балки умуман саломатлик (суяк, бўғим, қон томирлари, юрак ва бошқалар) ҳолатини яхшилайд.

Гулчеҳра АЗИМОВА тайёрлади.

Тавсияларга амал қилишдан олдин шифокор билан маслаҳатлашинг.



Коллаген толалари барқарор бўлмай, турли омиллар: ультрабинафша нурлар, ҳарорат ўзгариши, жисмоний зўриқиш, гормонал ўзгаришлар, истеъмолда шакар ва углеводлар миқдорининг кўплиги, чекиш таъсирида нобуд бўлиши мумкин.

Коллаген ҳамда эластин деб номланувчи яна бир оксил терида мавжуд бўлиб, унинг тузилиши ва кўриниши соғлом бўлиши учун иккиси бирликда ҳаракат қилади. Ҳам коллаген, ҳам эластиннинг соғлом даражасига эга тери нафақат ёш, балки етарлича таранг кўринади. Организмда табiiй равишда коллаген ишлаб чиқарилишида қуйидагилар ёрдам беради.

Алоэ вера ўсимлиги ичидаги гель азалдан жа-

бўғимлардаги оғриқни енгиллаштиради, инсон танасида коллаген ишлаб чиқаришни кучайтиришга ёрдам беради. У организмда табiiй равишда мавжуд, аммо ёш ўтгани сари ишлаб чиқариш тобора камаяди. С витамини (апельсин, киви, резаворлар, қалампир, карам, брүссель карами, брокколи) ва аминокислоталарга бой озиқ-овқатларни истеъмол қилиш гиалурон кислотаси ва коллаген даражасини оширишга хизмат қилади.

Женьшеннинг қаришга қарши таъсири кўп бора ўз исботини топган. У кўплаб кимёвий препаратлар келтириб чиқарадиган ножўя таъсирларга эга бўлмай, терига яхши сингади ва унинг дастлабки кўринишини сақлаб

УПРАЖНЕНИЯ ОТ ЗАСТОЯ ЖЕЛЧИ

Важно поддерживать здоровье органов пищеварения для хорошего самочувствия. Вместе с правильным питанием, можно делать специальные упражнения для работы с желчью. Они помогут избежать застоев и других проблем.

Одним из эффективных упражнений является поворот туловища. Сядьте на стул, слегка наклонитесь вперед и сделайте плавный поворот влево и вправо. Это упражнение помогает стимулировать желчный пузырь и улучшает пищеварение.

Еще одним полезным упражнением является «колени-локоть». Лягте на спину, поднимите ноги, согните их в коленях под прямым углом.

Поднимите руки вверх и попытайтесь дотронуться коленями до локтей. Это укрепляет мышцы брюшного пресса и способствует нормальной работе желчного пузыря.

Не забывайте, что регулярные физические упражнения помогают поддерживать организм в тонусе.

Попробуйте эти упражнения для поддержания здоровья желчного пузыря и всего организма.



«Я — донор»

ДОБРОЕ СЕРДЦЕ В ПОГОНАХ

Сотрудники органов внутренних дел стоят на страже порядка, защищая граждан от опасности. Но их служение обществу не ограничивается выполнением служебных обязанностей. Многие из них регулярно участвуют в донорских акциях, отдавая свою кровь тем, кто в ней нуждается. Одна из таких инициатив — акция «Я — донор».



Сдача крови — это еще одно проявление профессионального кредо сотрудников ОВД: «Служить и защищать». Только в этот раз они защищают не с оружием в руках, а с рукавом, закатанным для медицинской процедуры.

Часто именно силовики становятся почетными донорами, ведь они участвуют в подобных акциях не разово, а делают это регулярно. Хороший пример для граждан: быть донором — несложно, а польза от этого огромна.

Так, к примеру, в акции «Я — донор» по сдаче крови, проходящей в масштабах республики, участвует множество соотечественников, вносящих свой щедрый вклад в пополнение донорской

базы, необходимой в экстренных случаях.

В Наманганской области также была проведена благотворительная акция. В ней приняли участие и сотрудники Управления внутренних дел области. Среди личного состава проводи-

лась информационная и разъяснительная работа, для добровольцев, выразивших желание сдать кровь, созданы необходимые условия.

Сотрудники УВД Сурхандарьинской области и его низовых подразделений в сотрудничестве с област-



ным отделением движения «Юксалиш» также приняли активное участие в акции «Я — донор» в центре переливания крови.

Основной целью является оказание помощи гражданам, страдающим онкогематологическим заболеванием крови.

В благородной акции участвовали все профильные службы управления, сотрудники городских и районных органов внутренних дел.

Как принять участие?

Если среди читателей есть те, кто еще не сдавал кровь, но задумывался об этом, акция — отличный повод сделать первый шаг. Участвовать могут не только сотрудники ОВД, но и все желающие, соответствующие медицинским требованиям.

Прийти на пункт сдачи крови — это несколько минут времени, которые могут подарить кому-то годы жизни. Возможно, именно ваша кровь поможет человеку, попавшему в беду, или ребенку, борющемуся с болезнью.

Донорство — настоящий акт доброты. А когда

к нему присоединяются люди, чья работа — защищать и спасать, это обретает особый смысл. Пусть акция «Я — донор» напомнит всем, что даже небольшие добрые дела способны менять мир к лучшему. Присоединяйтесь!

Соб.корр.

МУНАЖЖИМЛАР БАШОРАТИ

(3 – 9 март)



Қўй. Молиявий сарф-харажатларни яқинларингиз билан бамаслаҳат амалга оширгангиз маъқул. Лекин шахсий ҳаётга боғлиқ қарорларни мустақил қабул қилишга ҳаракат қилинг. Бу ҳафта вақтинча ишни ва оилавий ташвишларни бир четга суриб, ўз қизиқиш ва севимли машғулотларингиз учун вақт ажратинг.



Бузоқ. Бу ҳафта сиз учун ёқимли лаҳзаларга бой бўлади. Яқинларингиздан сафар таклифи ёки кутилмаган совға олишингиз мумкин. Уларга эътибор ва ғамхўрлик билан жавоб қайтаринг. Дам олиш кунларини мириқиб ҳордиқ чиқаришга бағишланг.



Эгизаклар. Улкан иш режаларини тузишга ошиқманг, кутилмаган харидлардан ўзингизни тийишга ҳаракат қилинг, негаки бу ҳафтада касбий соҳангизга оид қийинчиликлар юзага келиши, пул йўқотишлар кузатилиши мумкин.



Қисқичбақа. Дастлабки уч кун бироз оғир кечади. Ўзаро тушунмовчилик ва муроасага келмаслик атрофдагилар билан муносабатларга салбий таъсир кўрсатиши мумкин. Катта аҳамиятга эга бўлган жиддий лойиҳаларга ҳозирча қўл урмаганингиз маъқул.



Арслон. Кўпдан бери орзиқиб кутилган имкониятни қўлдан бой бермаслик учун диққатли ва сергак бўлинг. Чигал ва ҳал этиб бўлмайдиган масалалар ҳеч бир қийинчиликсиз ўз ечимини топади. Бу даврда молиявий жабҳада тежамкор бўлиб, ортиқча харидлардан ўзингизни тийишга ҳаракат қилинг.



Паризод. Табиат қўйнида кўпроқ дам олишга эътибор қаратинг. Бу даврда молиявий жиҳатдан бироз қийинчилик юзага келиши мумкин. Ён-атрофдагилар билан хушмуомала бўлиб, улар билан асло баҳслашмасликка ҳаракат қилинг.



Тарози. Бу давр сиз учун ўта омадли бўлиб, кескин ўзгаришлар ва кутилмаган воқеаларга бой бўлади. Режалаштирилган барча юмушлар ва кўзланган мақсадлар кўнгилдагидек амалга ошади. Бунинг учун янада фаол ҳаракат қилишингизга тўғри келади.



Чаён. Бу ҳафта учун мушкул вазифаларни режалаштирманг, акс ҳолда баъзи сабаблар туфайли уларни ўзгартиришга ёки бекор қилишга тўғри келади. Сизни бироз нотинч ва ташвишли кунлар кутмоқда. Бу даврда иккиланиш, журъатсизлик ва шубҳа ҳар жиҳатдан сизга халақит қилади.



Ўқотар. Иш жойингизда рақобатга дуч келишингиз мумкин. Имкон қадар можаро ва келишмовчиликлардан йироқ туринг. Келиб тушадиган барча таклифларни мутахассислар билан муҳокама қилинг. Хатога йўл қўймаслик учун ҳар бир ишни пухта ўйлаб, амалга оширинг.



Тоғ эчкиси. Бу даврдаги ҳар қандай янги танишувлар фойда ва омад олиб келади. Атрофдагилар билан кўпроқ муносабатда бўлишга ҳаракат қилинг. Агар уй учун бирон нарс ҳарид қилиш ниятида бўлсангиз, яхшиси бу ишни ҳафтанинг сўнгги кунларида амалга оширган маъқул.



Қовға. Ёши ва лавозим жиҳатдан юқори турувчи танишлар билан муносабат қилишда эҳтиёткор бўлиб, имкон қадар хушмуомаланикни ўрнига қўйинг. Ваколатингизга кирмаган масалаларда ташаббус билдиришдан тийилинг. Бу ҳам иш, ҳам шахсий ҳаётингизга тегишли.



Балиқ. Бу даврда юз берадиган барча воқеа-ҳодисалар устида жиддий мулоҳаза юритиш мақсадга мувофиқдир. Яхшилаб ўйлаб кўринг, сўнгги пайтларда фақат ўзингизга вақт ва эътибор ажратиб, яқин инсонларнинг истак-хоҳиш ва қизиқишлари ҳақида унутиб қўймадингизми? Ҳаммасини тарози палласига қўйиб, ҳолис ҳулоса чиқаришга ҳаракат қилинг.



БИР ҚҶШИҚ ТАРИХИ

«БАҲОРЛАРДА ОЧИЛГАН БОЙЧЕЧАГИМ...»

Ўлкамизда кумушли киш ҳам ўз поёнига етиб, фасллар келинчаги – баҳор кириб келмоқда. Ҳар ён-ҳар ёнда баҳор ва у билан боғлиқ қўшиқлар қулоққа чалиниб, табиат гўзаллигидан баҳра олиш, ҳаммасини янги саҳифадан бошлаш ҳақида ўйлашга чорлайди, кишига ўзгача хушқайфият улашади. Айниқса, Ўзбекистонда хизмат кўрсатган артист Гиёсжон Бойтоев ижросидаги «Бойчечагим» қўшиғи кўпчилиكنинг тилига тушган, мухлисларнинг қулоғига оҳанрабодек сингиб кетган. Қўшиқ бўлган сатрлар таниқли шоир Илҳом Ҳамро қаламига мансуб. У бошқаларга ўхшамаган серқирра истеъдод соҳиби эди. Нисбатан қисқа, аммо жўшқин фаолияти давомида халқ дилига яқин, равон, самимиятга бой шеърлари билан мухлислар юрагидан жой олди. Марҳум шоирнинг қизи Азиза Ҳамроева отаси ҳақида эслаб, қуйидагиларни сўзлаб берди:



*Баҳорларда очилган бойчечагим,
Боғларимда сочилган бойчечагим.
Бу чиройни айт гулим, қайдан олдинг,
Юрагимга муҳаббат куйин солдинг.*

*Бойчечагим, қорақош бойчечагим,
Юлдузлардай сочилган бойчечагим.
Чиройингни кўриб, мен суйиб қолдим,
Қўлим етмай ўзингга куйиб қолдим.*

*Сочларингни тарайди шамол суйиб,
Товонингни ўпади қорлар эриб.
Офтоб ҳайрон боққанда ой юзингга,
Мен турибман чорасиз кундай куйиб.*

*Бойчечагим, қорақош бойчечагим,
Юлдузлардай сочилган бойчечагим.
Чиройингни кўриб, мен суйиб қолдим,
Қўлим етмай ўзингга куйиб қолдим.*

– Отамнинг ўзига хос шоирона табиати бор эди, буюртма учун шеър ёзмасди. «Сўзда сеҳр, шеърда ҳикмат бор» дерди, ҳар бир шеърини юрагидан ҳис қилиб ёзарди.

Ўзбекистонда хизмат кўрсатган артист Гиёс Бойтоев ҳам хонадонимизга келиб турардилар, отам билан жуда яхши чиқишишарди, феъллари феълларига мос келарди. Суҳбатлари анча маҳалгача давом этарди. Отам у кишига кўп шеърлар ёзиб берганлар, энг машҳурларидан: «Бойчечагим», «Ёшлигимиз қайтмайди», «Тегирмоннинг чархпалаги», «Онаси бор одамлар, ҳеч қачон қаримайди»... Булар қайси йилларда ёзилганини аниқ билмайман, лекин аввал қўшиқ бўлган, кейинчалик китобларига киритилган.

Отам шеърларини ҳеч қачон ўзининг шахсий мулки деб билмаганлар, қизғанмаганлар. Баъзилар рухсат сўраб, баъзилар эса шунчаки қўшиқ қилиб айтаверарди. Радио ёки телевизорда кўриб қолиб, «Адажон, сизнинг шеърин-




гиз-ку» десак, «Жуда яхши ижро бўлибди», деб қулиб кўярдилар.

Машҳур санъаткор Гиёс Бойтоев эса шоир ижодини юксак қадрлаб, «Айнан Илҳом Ҳамронинг шеърларини қўшиқ қилганимда тинглаганлар, шеър ва оҳанг узукка кўз қўйгандек бўлибди, дейишарди. Ижодкор учун бундан ортиқ баҳо бўлмаса керак», дейди.

Гарчанд бугун шоир Илҳом Ҳамро орамизда бўлмаса-да, ундан қолган ижодий мерос – кўплаб шеърлари қўшиқ бўлиб биз билан яшамоқда. Демак, шоир ҳам ўтли нафаси билан ёнимизда.

Қуйида «Бойчечагим» шеърининг қўшиқ вариантини келтирамиз.


Адолат ФАЙЗИЕВА,
ўз мухбиримиз.



КРОССВОРД

1. Қаттиқ диск.
2. Ахборотларни кўриш қурилмаси.
3. Расмлар ва матнлари компьютер хотирасига кири-тиш учун хизмат қиладиган қурилма.
4. Магнит лентага архив маълумотларни сақлаш учун хизмат қиладиган қурилма.
5. Арифметик ёки ман-тикий амалларни бажариб, бутун системанинг ишини назорат қилувчи қурилма.

Жавоблар: 1. Винчестер. 2. Монитор. 3. Сканер. 4. Стриммер. 5. Процессор.

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir
polkovnik
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir
o'rinbosarlari
podpolkovnik Azizjon FAYZIYEV
kapitan Aziza BOHODIROVA

Navbatchilar
Abror POYONOV
Radik TUMPAROV

Mas'ul kotib
Erkin SATTOROV

Sahifalovchilar
Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Fotomuxbirlar
Abu KENJAYEV
Ikrom HASANOV

TELEFONLAR:

71-231-33-88;
Obuna masalalari
bo'yicha:
71-231-38-74;
97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz
E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355



Tahririyat hisob raqami h/r
23402000300100001010.
Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va
moliya vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v
470010860262877031101179001
STIR 200637499.

Gazeta O'zbekiston matbuot va
axborot agentligi tomonidan
2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam
bilan ro'yxatga olingan.

Manzilizimiz: 100070, Toshkent shahri,
Shota Rustaveli 1-berk ko'chasi 9-uy.

Buyurtma №526.
Bosilish – ofset usulida.
Bichimi – A3.
Hajmi – 6 bosma taboq.
45407 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:
Yakka tartibda – 180.
Tashkilotlar uchun – 366.
Bosishga topshirish vaqti – 22.00.
Bosishga topshirildi – 21.00.
Sotuvda kelishilgan narxda.

«Kolorpak» MCHJ bosmaxonasida
chop etildi.
Korxona manzili: 100206
Yunusobod tumani,
Yangishahar ko'chasi 1^A-uy.